

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI

O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

**5111200 - o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr
ta’lim yo‘nalishi bitiruvchisi**

**YULDASHEVA RA’NO DAVLATYOROVNAning
«ADABIY TA’LIMDA O‘QUVCHILARNING BADIY
O‘QISH MAHORATINI SHAKLLANTIRISH»
mavzusidagi**

BITIRUV - MALAKAVIY ISHI

NUKUS – 2017

Bitiruv malakaviy ishi O'zbek adabiyoti kafedrası yig'ilishining 2017- yil «_____» _____dagi ___- bayonnomasi bilan himoyaga tavsiya qilindi.

Fakultet dekani:	f.f.n., dots. G.Qurbaniyazov
Kafedra mudiri:	f.f.d., prof. K.Quramboyev
Ilmiy rahbar:	f.f.n., dots. S.Matyakupov
Bitiruvchi:	R.Yuldasheva

Yuldasheva Ra'noning «Adabiy ta'limda o'quvchilarning badiiy o'qish mahoratini shakllantirish» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga Davlat attestatsiya komissiyasining qarori bilan «_____» ball («____%») qo'yildi.

«_____» _____ 2017- yil

DAK kotibasi:	N.Allamberganova
---------------	------------------

M U N D A R I J A

KIRISH.....	4
I BOB. BADIY O‘QISH VA O‘QITUVCHI MAHORATI	
1.1. Badiiy ijrochilik – adabiyot o‘qituvchisi faoliyatining muhim qirrasasi...	8
1.2. Badiiy o‘qish asoslari.....	12
II BOB. SHE’RIY ASARLARNI IFODALI O‘QISH USULLARI	
2.1. Erkin vazndagi she’rlarni ifodali o‘qish.....	22
2.2. Aruz vazndagi she’rlarni ifodali o‘qish.....	26
III BOB. NASRIY VA DRAMATIK ASARLARNI IFODALI O‘QISH	
3.1. Nasriy asarlarni ifodali o‘qish.....	42
3.2. Dramatik asarlarni ifodali o‘qish.....	48
XULOSA.....	53
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	56

KIRISH. BITIRUV MALAKAVIY ISHINING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. Ma'lumki, adabiyot mustaqil fan sifatida boshlang'ich ta'lim tugaganidan so'ng (4-sinf) o'tila boshlaydi. Albatta, bu davrda o'quvchi adabiyot va ifodali o'qish malakasining dastlabki bosqichini egallagan, so'z san'ati haqidagi dastlabki tasavvurga ega bo'lgan bo'ladi. O'quvchi 5-sinfga kelganda o'qish, yozish, kitobxonlik madaniyatiga oid dastlabki tayyorgarlik bilan keladi. Ular badiiy asar bilan tanishishning ibtidoiy ko'nikmalariga ega bo'lishadi.

Boshlang'ich sinflarda ko'proq xalq og'zaki ijodiga tegishli poetik janrlar: tez aytish, ertak, maqol, topishmoqlardan foydalaniladi. Mavzu doirasiga ko'ra esa ularda mehnat, baxt, Vatan, oila, yil fasllari, atrofimizdagi olam, inson, inson ma'naviyatidagi ezgu va yomon xususiyatlar ilmiy-ommabop maqolalar tarzida yoritilgan. 5-sinf dasturidayoq turli janrlardagi asarlar bilan tanishish taqozo etiladi. Ular orasida qo'shiq, maqol, topishmoq, afsona, ertak, latifa, doston, hikoya, ruboiy, masal, qissa, roman kabi xilma-xil janrlar mavjud.

Umumta'lim maktablarida "Adabiyot" darslik-majmua, "Adabiyot" darsligi majmuasidan foydalaniladi. Keyingi yillarda darsliklar uchun "O'qituvchi" metodik qo'llanmasi ham yaratilmoqda. Bu qo'llanmalar ona tili va adabiyot o'qituvchilari uchun metodik yordam vazifasini o'taydi. Mazkur darslik-majmualarda kiritilgan adabiy asarlarni ifodali o'qishda o'quvchilar bilim, malaka ko'nikmalar hosil qilish borasidagi tahlillarimiz bitiruv-malakaviy ishimiz mavzusining dolzarbligini bildiradi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ifodali o'qish masalasi A.Rustamov, A.Hojiahmedov, S.Inomxo'jaev, K.Oripov, M.Obidova,

M.Nurmatova kabi mutaxassislar tomonidan tadqiq etilgan¹. Aksariyat tadqiqotlarda mustaqillikdan oldingi davrga mansub dastur va darsliklardan o‘rin olgan adabiy asarlarni ifodali o‘qish haqida ilmiy-nazariy qarashlar aks etgan. Yana shunisi ham muhimki, bugungi kunda ifodali o‘qish mashg‘ulotlarini tashkil qilishda qo‘llanadigan vositalar yangilandi, imkoniyatlar kengaydi. Bu hol umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida adabiyot darslarida ifodali o‘qish jarayonini, bugungi kun nuqtai nazaridan ilmiy tadqiq etishni talab qilmoqda.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Nukus davlat pedagogika instituti O‘zbek adabiyoti kafedrasining «O‘zbek va turkiy xalqlar adabiyotining o‘zaro aloqasi, taraqqiyot tendentsiyalari: adabiy ta‘limda innovatsion texnologiyalar» deb nomlangan ilmiy tadqiqot mavzusi hamda 2016-2017 o‘quv yiliga mo‘ljallangan bitiruv malakaviy ishi mavzulari banki doirasida amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi. Malakaviy-bitiruv ishimizning maqsadi umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 5-9- sinflarining adabiyot darsliklaridan o‘rin olgan badiiy asarlarni ifodali o‘qish, o‘quvchilarga ta‘limning yangi vositalaridan foydalangan holda asarlarni ifodali o‘qishni o‘rgatish usullarini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Ishimizda quyidagi vazifalarni belgilab oldik: umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida o‘quvchilarni ifodali o‘qishga o‘rgatishning mavjud ahvolini, o‘qituvchilar tajribalarini o‘rganish; mavzuga oid ilmiy-metodik adabiyotlarni o‘rganish, tahlil qilish; o‘quvchilarni ifodali

¹ Inomxo‘jaev S. Badiiy o‘qish asoslari, “O‘qituvchi”, Toshkent, 1973, 172-b.; Nurmatova M. Ifodali o‘qish to‘garagi // Til va adabiyot ta‘limi, 1992. 4-son, 42-46-b.; Oripov K., Obidova M. Ifodali o‘qish. –Toshkent: O‘qituvchi, 1994, 21-bet.; Rustamov A. Adiblar odobidan adablar. –T.: ma‘naviyat, 2003. – 112.; Hojiahmedov A. Maktabda aruz vaznini o‘rganish. – Toshkent, O‘qituvchi, 1995. 96 b.

o'qishga o'rgatishning o'ziga xos usullarini aniqlash va ta'lim jarayoniga tatbiq qilishga doir tavsiyalar tayyorlash.

Tadqiqotning obyekti. Umumta'lim maktablarining 5-, 9- sinf Adabiyot darsliklari, asosiy obyekt sifatida tanlandi. Shuningdek, o'qitish jarayoni, badiiy o'qish usul va vositalariga munosabat bildiriladi. Tadqiqotda mavzuga oid ilmiy-metodik adabiyotlarni o'rganish, qiyoslash, kuzatish, suhbat kabi metodlardan foydalanildi. 5-, 9- sinflarning Adabiyot darslarida ifodali o'qish usullarining yangi pedagogik texnologiyalar asosida tadqiq etilishi ishning yangiligidir.

Tadqiqotning predmeti. Adabiy ta'limda badiiy o'qishning o'rgatilishi va unga dastur va darsliklarda ajratilgan o'quv soatlarinin ajratilishi hamda ularni o'qitishda ta'lim jarayonida uzluksizlikni ta'minlash bo'yicha tavsiyalar berish, tegishli xulosalar, taklif va tavsiyalarni umumlashtirish.

Tadqiqotning metodologik asoslari va metodlari. O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, hukumat qarorlaridagi adabiyot va san'at, tarix, ta'lim tarbiya, ma'naviyat, ma'rifat hamda milliy mafkura va milliy g'oya masalalari yuzasidan ilgari surilgan nazariy fikrlar bitiruv mallakaviy ishining metodologik asosini tashkil etadi.

Ishning ilmiy yangiligi. Ishning ilmiy va amaliy ahamiyati shundaki, 5-, 9- sinflarining adabiyot darslarida badiiy asarlarni ifodali o'qish usullarini ta'lim-tarbiyaga qo'yilayotgan zamonaviy talablardan kelib chiqqan holda tanlash, tatbiq qilish masalasi yoritib berildi, ifodali o'qish vositalaridan foydalanishdagi o'ziga xoslik aks ettirildi, ifodali o'qish mashg'ulotlarini takomillashtirishga doir tavsiyalar berildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotda bayon qilingan ilmiy-metodik xulosalardan umumiy o'rta ta'lim maktablarida adabiyot darslarining sifatini oshirishda, ko'rgazmalilikni ta'minlashda, "O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasining mazmunini belgilashda,

pedagogika institutlari o'zbek tili va adabiyoti bakalavrtalim yo'nalishlari talabalariga ifodali o'qish nazariyasi va usuliyoti haqida ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi. Bitiruv malakaviy ishi Nukus davlat pedagogika instituti O'zbek adabiyoti kafedrasida yig'ilishida muhokama qilinib, himoyaga tavsiya qilindi. O'quvchilarga badiiy o'qishni o'rgatish bo'yicha Nukus shahar XTMFMTTE bo'limiga qarashli 38-sonli umumtalim maktabidagi pedagogik amaliyot jarayonida ochiq dars tashkil etildi.

Ishning tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ish kirish, uch bob, umumiy xulosalar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, hajmi 57 sahifani tashkil etadi.

I BOB.

BADIIY O‘QISH VA O‘QITUVCHI MAHORATI

Badiiy ijrochilik – adabiyot o‘qituvchisi faoliyatining muhim qirrasi

Ma’lumki, adabiyot o‘qituvchisi o‘z faoliyatida millatimizning ma’naviy boyliklari hisoblangan, shu xalqning o‘tmish hayoti, g‘ami va qayg‘usi, buguni va kelajagi, ruhiy olami va insoniy qiyofasi ifodalangan san’at, badiiyat manbalaridan foydalanishi joiz. Birinchi Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Darsliklarda millat fikrining, millat tafakkuri va milliy mafkurasining eng ilg‘or namunalari aks etishi kerak”¹. Ana shunday ulug‘ maqsadlar asosida bunyodga kelgan darsliklardan o‘rin olgan badiiyat sarchashmalari ifodali o‘qish tufayli o‘quvchilar ongida muhrlanib qolishi mumkinligi isbot talab qilmaydigan holdir.

Barcha yirik uslubiyatchilar maktabdagi ifodali o‘qishga badiiy o‘qishning tarkibiy bosqichi – ilk bosqichi sifatida qarashsa-da, aslida uning asosiy vazifasi professional ijrochilar tarbiyalashdangina iborat bo‘lmay, balki eng muhimi, o‘quvchilar aqliy va estetik tarbiyasini ta’minlashdir. Shu ma’noda ifodali o‘qish badiiy o‘qishdir. Aslini olganda, bunday ifodali o‘qish badiiy so‘z san’atining ilk bosqichi bo‘lib, asosan, ta’limiy maqsadni ko‘zlaydi va adabiy matndagi: a) tinish belgilariga rioya qilish; b) har bir so‘zni burro va dona-dona qilib talaffuz qilish; v) shu asnoda so‘z ifodalagan ma’nolarni idrokka singdirib borish va tushunilishiga erishish; pirovard-oqibatda shular asosida bilim xazinasini bilan qurollanishini ta’minlashga qaratiladi. Aslida ifodali o‘qish adabiyot darslarida ko‘rgazmalilikning asosiy shakllaridan bo‘lib, u o‘quvchilarning adabiy asarning badiiy-estetik xususiyatini his etishlarida muhim vazifa bajaradi.

¹ Karimov I. Barkamol avlod orzusi. Fan, Toshkent. 1999. 14-bet.

Adabiy ta'limning bosh maqsadi o'quvchilar shaxsini, ularning ma'naviyatini shakllantirish ekanligi tufayli bu fan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da barkamol inson tarbiyasi bo'yicha qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishda katta ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Bu vazifalar adabiyot muallimidan, boshqa fan o'qituvchisi faoliyatidan keskin farq qiluvchi jihatlarni talab etadi. Adabiyotchining o'zigagina xos bo'lgan bunday sifatlarni rivojlantirish o'quvchi ma'naviyatini shakllantirish, adabiyot darslarining samaradorlik darajasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shunday sifatlardan biri badiiy ijrochilikdir.

Badiiy ijrochilik murabbiyning ta'lim usullari va metodlariga ijodiy munosabatida namoyon bo'ladi. Bunda o'qituvchining shaxslik fazilatlari uning nutqiy va pedagogik mahorati o'z ifodasini topadi. Badiiy ijrochilik mahorati turli ta'lim metodlaridan unumli foydalanishda sayqallashadi. O'qituvchining tajribasi ortgan sari bu faoliyatning ham samarador jihatlari ochilib, yangilanib boraveradi.

Badiiy ijrochilik o'quvchiga hayot lavhalarida, adabiy asarlarning sirli manzaralarida go'zallikni ko'rsatishdan iborat. Bu borada har bir dars qayta takrorlanmaydigan, o'ziga xos ijodiy jarayon bo'lib, o'qituvchi uning muallifi, ijrochisi, rejissyori sifatida o'z mahoratini namoyon etadi. Adabiy asar muallifining asar mazmuniga singdirgan his-tuyg'ular va ruhiy holatini o'quvchilar tomonidan his etilishiga erishishdir. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilarni asar mazmuni va g'oyasi bilan tanishtiribgina qolmay, balki badiiy ijro vositasida asar mazmuniga singdirilgan hissiyotni, tuyg'uni ular qalbiga joylashi ham kerak.

Badiiy ijroda o'qituvchi asardagi qahramonlarning va muallifning tuyg'ularini o'quvchilarning kechinmalariga aylantiradi. Yaxshi ijro asarni kashf etadi. Unga yangi umr baxshida qiladi, undagi anglanmagan sirlarni ochadi va namoyon etadi. Mahorat bilan ijro etilgan musiqa yoki qo'shiq

tinglovchini qanchalik maftun etsa, sehrlasa, o'qituvchi ijrosidagi badiiy asar ham o'quvchining diqqatini shunchalik tortishi kerak. Shundagina o'qituvchi kulsa, o'quvchi kuladi, xo'rsinsa, beixtiyor ko'zlariga yosh oladi va darsga qiziqish bilan kelib, unga faol ishtirok etadi.

Har bir bunday dars o'quvchi qalbida bir umr muhrlanib qoladi. O'qituvchining badiiy ijrochilik mahorati o'quvchilarda ham ijodiy va ijrochilik qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. Ammo bunda o'qituvchi soxtalikka yo'l qo'ysa, ko'zda tutilgan maqsadga erishib bo'lmaydi.

Badiiy ijrochilik o'qituvchilardan **nutqiy mahorat, badiiy o'qish hamda tahlil qilish mahoratini** talab etadi.

Nutqiy mahoratni egallash uchun adabiyot o'qituvchisi nutq madaniyati va notiqlik san'ati sirlarini egallashi kerak. Notiqlik san'ati o'qituvchi nutqining kamoloti, uning ma'naviy etukligidan dalolat beradi. O'qituvchi nutqining ixcham va ma'nodorligi, musiqiy va jozibadorligi o'quvchilarning estetik zavqini oshiradi, ularning tafakkurini, his-tuyg'ularini rivojlantiradi, ma'naviyatini shakllantiradi. Shuning uchun o'qituvchi har bir matnga faqatgina lisoniy hodisa emas, balki ruhiy nafosat hodisasi sifatida yondashishi kerak.

Mantiqiylik, aniqlik, ravonlik, soflik, ifodalilik maqsadga muvofiqlik nutqiy mahoratning muhim shartlaridir. O'qituvchining nutqi chiroyli, ifodali, lirik tasvirlarga boy bo'lsagina, u o'quvchini maftun etadi. Nutq orqali o'qituvchi o'quvchi ongiga, qalbiga ta'sir etishini o'zining asosiy maqsadi deb bilishi kerak.

Badiiy o'qish mahorati o'quvchilarni asar bilan birinchi bor tanishtirishi jarayonidayoq namoyon bo'lishi kerak. Bu mahorat o'qituvchi tomonidan asar timsollarining his-tuyg'ularini o'quvchilar qalbiga mohirona yetkazish bilan baholanadi. Badiiy o'qish mahoratining o'ziga xos xususiyati

va murakkabligi shundaki, bunda o'qituvchi o'zining emas, o'zgalarning nutqini maromiga yetkazib ijro etishi lozim. Yozuvchi va shoirlar asarlaridagi timsollar, qahramonlar fikrlari va his-tuyg'ulari namoyish etilgan nutqni badiiy ijro etish orqali o'quvchilarning ruhiy, hissiy dunyosiga ta'sir etish, har bir o'quvchining qalbiga yo'l topa bilish o'qituvchi badiiy ijro mahorati samarasini tashkil etadi.

Ayniqsa lirik asarlarning badiiy ijrosi murakkabdir. Chunki bunda o'quvchilarga asarning mazmuninigina yetkazish bilan cheklanilmaydi. Lirik asarlardagi tuyg'ular mahoratli badiiy ijro orqaligina o'quvchilar qalbiga etib borishi mumkin. Bunda tuyg'ular jo'shqinligiga alohida e'tibor berilib, ular vositasida asarning g'oyaviy mazmuni, muallif fikr-mulohazalari va qahramonlarining ichki kechinmalari namoyish etiladi hamda ularni o'quvchilar ham his qila olishlariga erishish vazifa qilib qo'yiladi. His qila olish shunchaki bilib qo'ya qolish emas. His qilinganda, vujud ham, qalb ham ta'sirli hislar olamiga g'arq bo'ladi. Natijada o'quvchida achinish va zavqlanish, o'zgalar holiga, musibatiga sherik bo'lish, ulardagi bu holatni bartaraf etishga intilish hissi uyg'onadi.

Tahlil qilish mahorati. Adabiyot o'qituvchisi asardagi tabiat lavhalarini, voqea-hodisalarni, insonlarning tashqi qiyofasini, ularning ichki dunyosini mukammal tavsiflab bera olishi kerak. Chunki asar tomsollarining ruhiy holati, ichki kechinmalari, his-tuyg'ular voqea-hodisalar va tabiat tasvirlari bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Adabiyot o'qituvchisi ana shularni mohirlik bilan tavsiflash, tahlil etib bera olmasa, o'quvchi asarning eng muhim sir-asrorlarini anglay olmaydi, timsollarning ruhiy holatini tushunmaydi va unga to'g'ri munosabatda bo'lib, to'g'ri baho bera olmaydi. Bularning barchasi badiiy asarlarda o'xshatish, sifatlash, qarshilantirish, jonlantirish, mubolag'alar asosidagi badiiy mahorat, poetik zavq, musiqiy nazokatga o'xshash turli badiiy vositalar orqali namoyon bo'ladi. Ularni

o'quvchilarga ko'rsata bilish asar matnini chuqur va sifatli tahlillash demakdir.

Tavsiflash va tahlillashda o'qituvchi o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, tayyorgarlik darajalarini hisobga olishi lozim, chunki ular adabiy tahlilda matn mazmunini tushunibgina qolmay, unda ifodalangan tuyg'ularni his qila olishlari kerak.

Xulosa shuki, adabiyot darslarining muvaffaqiyati o'qituvchining tayyorgarligi, bilim saviyasigagina emas, uning dars jarayonini tashkil qilishga ijodiy munosabatda bo'lishiga ham bog'liq. Adabiy ta'limdagi o'ziga xoslik adabiyot o'qituvchisidan alohida ijrochilik mahoratini talab etadi. Adabiyot o'qituvchisi badiiy asarlarni maromiga yetkazib ijro eta olmasa, o'quvchilarda asarda ifodalangan tuyg'ularni yetkazib bera olmaydi. Shuning uchun ham bo'lajak adabiyot o'qituvchilarida nutq madaniyati va badiiy ijrochilik qobiliyatini shakllantirishga alohida e'tibor berish muhim hisoblanadi.

BADIY O'QISH ASOSLARI

Ifodali o'qishda nafas, ovoz, nutq a'zolari ishtiroki kundalik, maishiy nutq jarayonidagiga qaraganda ancha faol qatnashishi ma'lum. Nutq a'zolarining faollashishiga ko'maklashuvchi mashqlar majmuasiga esa nutq vositalari deyiladi².

Tadqiqotlarda noto'g'ri nafas olish, o'rinsiz pauzalar qilish o'qilayotgan matnning mazmuniga putur yetkazishi mumkinligi, muallif maqsadi tinglovchiga etib bormasligiga sabab bo'lishi haqida alohida ta'kidlangan va nafas olish faoliyatini yaxshilashga xizmat qiluvchi mashqlar tizimi tavsiya qilingan.

² Oripov K., Obidova M. Ifodali o'qish. –Toshkent: O'qituvchi, 1994, 21-bet.

Masalan:

Dastlabki holat. Gavda to‘g‘ri tutilib, oyoq tovonlari bir-biridan yelka kengligida uzoqlashtiriladi. Qo‘llar yelka tekisligida oldinga cho‘zilgan holda ko‘tariladi, kaftlar bir-biriga tegib turadi. Bir deganda, tovon ko‘tarilib, panjalar uchida turiladi va qo‘llar ikki yonga yo‘naltirilib, burun orqali nafas olinadi. Ikki deganda, gavda o‘z holiga qaytariladi, qo‘llar yana oldinga cho‘zilgan holda kaftlar bir-biriga tekkizilib, og‘izdan nafas chiqariladi. Shu tarzda, bir deganda, yuqorida aytilgan holatga kelib, nafas olinadi, ikki deganda esa, yuqorida aytilgan holatga qaytib, nafas chiqariladi. Bu mashq har safar 4-5 marta qaytariladi.

Eslatma: har bir mashqda nafasni burun orqali olib, og‘izdan chiqarishni unutmang³.

Ovoz va nafasni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish maqsadida **m, n, ng, l, r** sonor tovushlariga unlilarni qo‘shib talaffuz etish mashqlari, shuningdek, tez aytishlar aytib turish yaxshi natija beradi.

Mi, me, ma, mo, mo‘, mu, mi.

Ni, ne, na, no, no‘, nu, ni.

Li, le, la, lo, lo‘, lu, li.

Ri, re, ra, ro, ro‘, ru, ri

Tubsiz dengiz dedingizmi?

Dengiz tengsiz dedingizmi?...

Badiiy asarni ifodali o‘qishda nafas va ovoz kabi diktsiya ham alohida o‘rin tutadi. Ma’lumki, **diktsiya** so‘zlarni aniq, burro talaffuz qilish degan ma’noni anglatadi. Orfoepiya qoidalariga, diktsiyaga ahamiyat qaratish nutqning tabiiy va aniq, ravon hamda tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi.

³ Oripov K., Obidova M. Ifodali o‘qish. –Toshkent: O‘qituvchi, 1994, 22-bet.

Badiiy asarni ifodali o‘qishda tinish yoki pauzaning o‘ziga xos o‘rni bor. Pauzaning quyidagi uch ko‘rinishi ma’lum:

1. Grammatik pauza
2. Mantiqiy pauza
3. Psixologik pauza

Badiiy asarlar ifodali o‘qilganda tinish belgilarida qisqa pauza qilinishi grammatik pauza hisoblanadi. “Ifodali o‘qish jarayonida tinish belgilariga e’tibor berish katta ahamiyatga ega. Chunki tinish belgilari badiiy tekstda muhim vazifalarni bajaradi: vergul (,) qo‘yilgan o‘rinda so‘z biroz balandroq ovoz bilan o‘qiladi, nuqta (.)da ovoz pasayadi, undov (!) da ovoz ohangi qat’iyat, buyruq, hukm, kuchli hayajonni bildiruvchi xarakterda bo‘ladi, so‘roq (?)da ovoz so‘z oxirida vergul qo‘yilgandagiga nisbatan balandlashadi, qo‘sh nuqta (:) da ovoz pasaymaydi, balki yuqori ko‘tarilgan holda – o‘rta balandlikda bo‘ladi, tire (–) da “esa”, “ya’ni” kabi so‘zlar mazmuni yashiringan bo‘lib, verguldagi kabi ovoz oxiri yuqori ko‘tariladi, ko‘p nuqta (...) da ham ovoz darajasi o‘rta me’yorda bo‘ladi. Ifodali o‘qishda bularga e’tibor berilmasa, o‘quvchilarda emotsiya hosil bo‘lmaydi, asar mazmuni to‘la o‘zlashtirilmaydi.¹ A.Zunnunov ta’kidlaganidek, aslida ifodali o‘qish adabiyot darslarida ko‘rgazmalilikning asosiy shakllaridan hisoblanadi.

Mantiqiy pauza so‘z guruhlarini biri-biridan ajratib, matn ma’nosini aniq va to‘la ifodalashga xizmat etuvchi pazuga mantiqiy pauza deyiladi. Mantiqiy pauza matnni kesib o‘tgan to‘g‘ri chiziqcha (/) bilan belgilanadi⁴.

Psixologik pauza. Muallifning matnda yashiringan kuchli his-hayajonini psixologik pauza orqali ifodalash mumkin. Psixologik pauza o‘quvchi va

¹ Zunnunov A. Maktabda G‘.G‘ulom hayoti va ijodini o‘rganish. -T.: O‘qituvchi, 1977. -16 b.

⁴ Oripov K., Obidova M. Ifodali o‘qish. –Toshkent: O‘qituvchi, 1994, 55-bet.

notiq nutqiga jonlilik kiritib, asarning ta'sirchanligini oshiradi. Psixologik pauza ikki chiziqcha (//) bilan belgilanadi.

Badiiy asarlarning o'xshatish, sifatlash, mubolag'a, istiora va boshqa tasviriy ifoda vositalari qo'llangan o'rinlarda psixologik pauza katta rol o'ynaydi.

Intonatsiya

Ma'lumki, nutq tafakkur mahsulidir. Kishi fikri yoki maqsadini ikkinchi bir kishiga so'zlar vositasida yetkazib, o'zaro fikr almashadi, aloqada bo'ladi va kayfiyatini ifoda etadi. Fikr-tuyg'ular, maqsad-intilishlar, his-hayajonlar boshqalarga ovoz tovlanishi orqali ham yetib boradi. Muayyan istak, niyat, intilish, harakat natijasida yuzaga keluvchi ana shu ovoz tovlanishlariga intonatsiya deyiladi.

Ifodali o'qish jarayonida intonatsiyaning ahamiyati katta. Badiiy asarda intonatsiya orqali qahramonlarning turli kayfiyati, ichki kechinmasi ifodalanadi. Ayniqsa, poetik asarlarning ritmik ohangdorligini tinglovchiga yetkazishda intonatsiya katta rol o'ynaydi.

Intonatsiyaning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, ta'kidlanganidek, u asar mazmuni, avtor maqsadi, fikr-tuyg'usi hamda kayfiyatidan tabiiy ravishda kelib chiqadi.

Har qanday asarda o'ziga xos temp va ritm yashiringan bo'ladi. Shuning uchun o'quvchi to'g'ridan-to'g'ri ifodali o'qishga kirishmasdan avval asar bilan puxta tanishib chiqishi zarur. So'ngra asarning temp va ritmi o'zgaradigan yerlarini qalam bilan belgilab olgach, ifodali o'qishga kirishsa, asar mazmuni, muallif maqsadi tinglovchiga to'liq etib boradi.

Temp lotincha (tempus -tempus) so'zidan olingan bo'lib, sur'at, daraja, vaqt degan ma'nolarni anglatadi.

Temp – ifodali o'qishning his-hayajon jihatidan intensivligi, uning iztirobli, hayajonli nafasidir. Asarda temp qahramonlarning ichki

kechinmalari, his-hayajon, voqealar rivojlanishining keskinligi darajasiga ko'ra o'zgarib turadi.

Ifodali o'qish jarayonida tempni ko'tarish hovliqish degan gap emas, aksincha jonlantirish demakdir.

“Agar biror harakat ma'lum bir vaqt me'yorida bajarilsa, tempni ko'tarish, o'sha vaqtni biroz qisqartirishga olib keladi. Natijada yashash (kechinma)ni ham, shu orada aytiladigan so'zni ham biroz tezlashtirib, qisqartirilgan vaqt miqyosiga joylashtirishga to'g'ri keladi”⁵.

Agar ifodali o'qish jarayonida temp inobatga olinmasa, nutq so'lg'in, jonsiz bo'lib ta'sir kuchi pasayadi. Ritm grekcha (rhuthmos – ritmos) so'zidan olingan bo'lib, vazndosh, ohangdosh degan ma'nolarni anglatadi. Ritm ifodali o'qishda katta o'rin tutadi.

Badiiy adabiyotda, ayniqsa, she'riyatda misradagi kichik bo'laklarning bir-biriga monand ravishda takrorlanib kelishi ritmni hosil qiladi. Masalan, barmoq tizimidagi she'rlarida ritm, turoq, qofiya, radiflar yordamida va misralardagi hijolarning bir tekisda takrorlanishidan maydonga keladi. Aruz tizimiga mansub she'rlarda esa ritm cho'ziq va qisqa hijolarning bir xil tartibda takrorlanishidan hosil bo'ladi. Erkin she'rlarda har bir satr zinapoya shaklida bo'laklarga bo'lib yoziladi va ularni o'qiganda mazmunga qarab ritm saqlanadi.

Ma'lumki, o'qituvchidan adabiy asarning badiiy xususiyatini aks ettirib, emotsional zavq beradigan qilib o'qish talab qilinadi. Agarda o'qituvchi matnni yuqorida qo'yilgan talab asosida o'qiy olsa, unda asarning badiiy ta'sir kuchini yozuvchining maqsad va ruhiy holatini, tasvirlanayotgan hayot manzarasini tinglovchining ko'z o'ngida to'g'ri gavdalantira oladi.

Shunga ko'ra o'quvchi ham xuddi o'z o'qituvchisi singari o'qishga harakat qiladi, unga taqlid qiladi, uning yo'lidan borgisi keladi.

⁵ Inomxo'jaev S. Badiiy o'qish asoslari, “O'qituvchi”, Toshkent, 1973, 172-b.

Matnni to'g'ri o'qishning asosiy yo'laridan biri avval matn bilan tanishib chiqish zaruriyatini tug'diradi. O'quvchi matnni bir marta ichda o'qib, notanish so'zlarni aniqlab olgach, so'ngra matnni ovoz chiqarib ifodali o'qishga kirishsa, qo'yilgan maqsadga tezroq erishishi mumkin.

Bundan tashqari badiiy matnni o'qib uni og'zaki hikoya qilib berish asar mazmuniga to'la tushunishga olib keladi. Asar mazmunini to'la tushungan o'quvchi matnni to'g'ri, ifodali o'qishi mumkin.

Ifodali o'qish bilan qayta ijodiy hikoyalash bir-biriga juda yaqin turadi. Biror badiiy asarni yoki undan olingan parchani ifodali o'qigan vaqtda o'quvchi iloji boricha muallifning fikriga yaqinlashtirib so'zlab berishga, yozuvchining nutq uslubini, matnning syujet chizig'ini va kompozitsiyasini saqlashga harakat qiladi. U tinglovchilarning asar mazmunini yaxshiroq tushunishlariga, undan ta'sirlanishlariga erishish uchun ifodali o'qish vositalaridan biri bo'lgan intonatsiyadan, mimika va imo-ishoralardan foydalansa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Qayta ijodiy hikoyalashda esa u bilim qobiliyatini ishga solib hikoya qilinadigan asarga nisbatan erkinroq munosabatda bo'ladi. Asosiy e'tiborni asardagi biror voqeaga qaratmay, muayyan g'oyani birinchi o'ringa qo'yadi. Hikoya qilish jarayonida o'quvchi matnni qisqartirishi, undagi tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlarni o'z so'zlariga almashtirib hikoya qilishi mumkin. O'quvchi o'qilgan matnni ijodiy qayta ishlab, asosiy mazmunni saqlagan holda uni yangi shaklda bayon qilishga odatlanadi. O'z fikr-mulohazalarini bayon qilish uchun yangi-yangi shakl va iboralarni ishlatishga harakat qiladi. Ularni isbotlash maqsadida matndan parchalar, tsitatalar keltiradi. Shu yo'l bilan ularning og'zaki nutqi birmuncha yaxshilanadi, fikr yuritishlari esa ravonlashadi.

O'quvchilar mumtoz asarni o'qiyotgan vaqtda birmuncha qiynaladilar. Buning asosiy sabablaridan biri shevaga berilib ketish bo'lsa, ikkinchisi eski o'zbek so'zlarini yaxshi bilmaslikdir.

Buning uchun iloji boricha shevadan qochib, adabiy soʻzlashishga intilish, soʻzlarni toʻgʻri talaffuz etishga urinish lozim. Ayrim talaffuzi qiyin soʻzlarni yod olish kerak.

Mumtoz asarlarni ifodali oʻqishdan oldin matn bilan yaxshi tanishib chiqish jarayonida yozuvchi yoki asar qahramonining kechinmalarini chuqur his etib asar mazmuni va mantiqini toʻla tushunish lozim. Bu mehnattalab va murakkab bir ishdir.

Adabiy asarni oʻqish matn ustida ishlashning muhim bosqichidir. Badiiy asarlar janr xususiyatlari va dastur talablariga koʻra sinfda oʻqituvchi nazorati ostida, uyda mustaqil tarzda oʻqiladi. Sinfda ovoz chiqarib, ovoz chiqarmay, joʻr boʻlib, rollarga boʻlib, sharhli, ifodali, adabiy-badiiy oʻqish usullarida mutolaa qilinadi. Quyida ulardan ayrimlariga toʻxtalamiz.

Sharhli oʻqish. Tarixiy-memuar, ayrim hollarda zamonaviy mavzudagi asarlar mazmunini oʻzlashtirish sharhli oʻqishni taqozo etadi. Sharhli oʻqish lugʻat ustida ishlashni anglatmaydi, balki asarlardagi obrazli ifodalar, maqol va matallar mazmunini sharhlash, tarixiy-afsonaviy, xayoliy-fantastik timsollar haqida maʼlumot berish, izohlash kabi murakkab masalalarni qamrab oladi. masalan, boshlangʻich sinflarning oʻqish kitoblari, 5-sinf oʻzbek adabiyoti darslik-majmuasidagi “Yeridan ayrilgan yetti yil yigʻlar, elidan ayrilgan oʻlguncha yigʻlar” “Aybsiz doʻst izlagan doʻstsiz qolar”, “Ona yurtning oltin beshiging” kabi maqollar izohlanmasa, A.Oripovning “Oʻzbekiston” (5-sinf) qasidasidagi “Ikki asr yarim dunyoni zir qaqshatdi oqsoq jahongir”, “Osmon ilmi tugʻilgan ilk bor Koʻragoniy jadvallarida” misralari sharhlanmasa mazkur sheʼrda tilga olingan Beruniy, Chingizxon, Jaloliddin, Sobir Rahimov, Habib Abdullaev kabi tarixiy shaxslar yoxud Erkin Vohidovning “Oʻzbekim” (6-sinf) qasidasida keltirilgan Afrosiyob, Oʻrxun xati, Sarbador, zardoʻshim, budda atamalari toʻgʻrisida maʼlumot berilmasa, oʻquvchilar oʻsha asarlarning mazmunini chuqur tushunib

yetmaydilar. O‘quvchilarning ayniqsa, mumtoz adabiyot namunalari ma’nomazmunini o‘zlashtirishlarini sharhli o‘qishsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. O‘tmishda yaratilgan asarlarni bugungi o‘quvchi uchun qadrli, qiziqarli qilish ularni mutolaa etishni hayotiy zaruriyatga aylantirishga tarixiylik tamoyiliga amal qilinadi. Bu esa o‘sha asarni haqqoniy baholashga, o‘z davri doirasida o‘rganish va bugungi kunimizga bog‘lab tushunishga imkon beradi. O‘tmish shu tariqa zamonamizga bog‘lanadi. Bunda o‘quvchilarga tarixiy asarda tasvirlangan voqealarning vaqti, makonini ham tushuntirish muhimdir. Tarixiy asarlar darslik emas, shuning uchun ham ularni o‘rganishda izohlash talab etiladi. “Shiroq”, “To‘maris”, “Guldursun” kabi hayotiy asosga ega afsonalar ham “Boburnoma”, “Shayboniynoma” kabi memuarlar ham “O‘tgan kunlar”, “Mehrobdan chayon”, “Navoiy”, “Mirzo Ulug‘bek”, “Ulug‘bek xazinasini”, “Bobur”, “Humoyun va Akbar” yanglig‘ tarixiy-badiiy asarlar ham shu taxlit o‘rganishni taqozo etadi. Ayniqsa, yaratilgan vaqti bilan asar voqealari kechgan davr o‘rtasida farq katta bo‘lgan matnlar ustida ishlashda tarixiy sharhga alohida zarurat seziladi. Bu xildagi asarlar sharhli o‘qilmasa, o‘quvchilar mumtoz adabiyotimiz namunalari – juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega madaniy merosimiz misolida vatanimiz o‘tmishi, jafokash xalqimizning azaliy qadriyatlarini, badiiy-estetik tafakkuri tarixiga tegishli darajada tushunib etmaydilar, ma’naviy kamolotga erisha olmaydilar. Adabiy ta’lim shusiz mukammal bo‘lmaydi. Mumtoz adabiyotimiz xazinasini adabiyotimiz erishgan ma’naviy boylikka vaqti-vaqti bilan ko‘z tashlab, buyuk ajdodlarimiz ruhini xotirlaydigan etnografik muzey emas, balki yoshlar tarbiyasiga safarbar merosdir. Bu merosdan qay darajada to‘g‘ri va unumli foydalanish adabiyot o‘qituvchilarning mahoratiga, birinchi navbatda, matn ustidagi ishlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishga, ta’limning optimal metodlaridan samarali foydalanishga bog‘liq. “Adabiyotmi, teatrmi – o‘rgatmasligi kerak, – deb yozgan edi rejissyor Ejen Ionesko, – tarbiyalashi

zarur. Hayot jumboqlari yuzasidan tayyor javoblar emas, savollar bermog'i lozim. Yana ham to'g'rirog'i, mustaqil faoliyat uchun aqlni charxlashi kerak. Menda hech qachon tayyor javoblar bo'lgan emas. Teatr fikr uyg'otishi, hayot haqida o'ylashga majburlashi, bezovta qilishi, u yoki bu vaziyat yuzasidan mustaqil fikrlashga xalaqit bermasligi, tayyor retsept in'om qilishdan saqlanishi zarur. Qisqasi, teatr insonni tanlashga da'vatlaydi".

O'zbek mumtoz adabiyoti o'zbek adabiyoti haqida ham shu gapni aytish mumkin va u o'z oldidagi bu vazifani o'quvchilar uchun tushunarli bo'lgan taqdidragina to'la bajaradi. Sharhli o'qish o'z maqsadiga ko'ra tarixiy, uslubiy, axloqiy-didaktik kabi turli xarakterda bo'lishi mumkin va u faqat matnni emas, balki matn zaminidagi yashirin fikrni ham o'qishga, asar yuzasidan fikr-mulohazalarini dalillashga o'rgatadi.

Adabiy o'qish. Adabiy o'qish tushunchasi ilmiy iste'molda keng ma'noda 5-9-sinflarning adabiyotdan o'quv kursini anglatga, tor ma'noda o'qish metodini bildiradiki, biz bu o'rinda ikkinchi ma'nosi xususida so'z yuritamiz.

Adabiy asarning badiiy-estetik mohiyati undagi qahramonlar, sahnalar, tabiat tasvirlari, dialoglar va boshqa turli komponentlarning murakkab tartibini o'rganish, sharhlash orqali o'zlashtiriladi. O'qituvchi shu jaryonda o'qitishning turli metodlariga murojaat qiladi. Asar poetikasi, badiiy xususiyatlarini tushuntirishga ayniqsa, adabiy o'qishning ahamiyati beqiyosdir.

Badiiy asarni grammatik va poetik qonun-qoidalariga rioya qilib o'qish adabiy o'qish deyiladi. Adabiy o'qishning asosiy vazifasi biror asarning poetik va badiiy xususiyatlarini ochib berishdan iborat. Bu esa adabiy o'qishning metodik xarakter kasb etishini ko'rsatadi. O'qituvchi biror lirik asarni o'rgatishni rejalashtirar ekan, mashg'ulot davomida uning poetikasiga xos jihatlar – qofiya, hijo, turoq, radif kabi komponentlar

to'g'risida matndan misollar keltirib, o'z fikrlarini asoslash yo'lidan boradi. Nasriy va dramatik asarlar matni ustida ishlashda ham adabiy o'qishdan keng foydalaniladi.

Badiiy matn ustida ishlash jaaryonida o'qituvchining vazifasi asarlarning poetik mazmunini tahlil qilish, mavzuviy va tasvir predmetini tushuntirish, qalamga olingan hayot voqeligiga muallif munosabatini aniqlashdan iborat.

Bu vazifani amalga oshirishda ifodali o'qish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra o'qishning bu turini **asar ma'no-mazmunini hissiyot va fikr uyg'unlashgan jonli nutq orqali o'quvchiga yetkazish usuli** deyish mumkin. Ifodali o'qish quyi sinflarda o'quvchilar talaffuzidagi **r, s, ch** tovushlari hamda sheva elementlari bilan bog'liq nuqsonlarni bartaraf etishga, xotirasini mustahkamlashga yordam bersa, yuqori sinflarda ruhiyatini boyitishga, so'z san'atining sehrli olamiga yetaklashga xizmat qiladi.

Yuqorida bayon etilgan fikr-mulohazalardan shunday xulosaga kelish mumkinki, sharhli, ifodali va adabiy-ijodiy o'qish matn ustida ishlashda ham uslub ham vosita maqomida bo'ladi.

Badiiy asarni o'qishning mazkur turlari undagi har bir so'z, ibora va jumlaning qiroat bilan, to'g'ri, ravon o'qishnigina emas, balki matnnig umumiy ruhiga kirib, tushunib o'qishni ham anglatadi, asarning janriy xususiyatlaridan tashqari o'ziga xos ichki tuzilishi va ruhiyatini hisobga olishni taqozo etadi. Bunga erishish uchun, o'quvchilarni matn ustida jiddiy ishlashga o'rgatish zarur.

II BOB.

SHE'RIY ASARLARNI IFODALI O'QISH USULLARI

ERKIN VAZNDAGI SHE'RLARNI IFODALI O'QISH

Tinglovchiga asarning g'oyaviy mazmunini, muallifning hayot haqidagi fikr-mulohazalarini, qahramonlarning ichki hissiyotlarini yetkazish ifodali o'qish oldiga qo'yiladigan asosiy vazifadir. Shu maqsadda har bir talaba ifodali o'qishning o'ziga xos xususiyatlarini mukammal o'rganishi kerak. Uni puxta o'zlashtirgan kishining nutqi ravon, shirali bo'lib, o'z fikrini tinglovchilarga to'g'ri va izchil yetkaza oladi. To'g'ri, badiiy asarlarning hammasi ham bir xilda o'qila bormaydi. Har qanday asarni ifodali o'qishga kirishishdan oldin uning g'oyaviy mazmunini, obrazlar tizimini va badiiy xususiyatlarini chuqur o'rgani-shi lozim.

She'riy asarlarni ifodali o'qishning o'ziga xos xususiyatlari o'qiladigan asarlarning janri, ritmi, qofiyalanish tartibi va band qurilishiga bog'liq. Biz quyida barmoq va aruz she'riy tizimiga mansub asarlarni o'qish haqida qisqacha fikr yuritib, misollar keltiramiz. Barmoq tizimidagi she'rlar aruz tizimidagi she'rlardan tuzilishi va o'qilishi jihatdan farq qiladi. Barmoq tizimidagi she'rlar cho'ziq va qisqa bo'g'inlarga ajratilmaydi, balki hijolar miqdoriga asoslanadi. Unda misralardagi hijo (bo'g'in) larning soni bir xilda, tekis takrorlanishi natijasida muayyan ritm hosil bo'ladi.

Qiziq, har yil yanvarda
Men tug'ilgan bir kun bor.
Kelishadi mehmonlar,
Yog'ib turganda ham qor.
(Zulfiya)

Bu she'ning har bir misrasida hijolar soni yettitadandir.

Qi-ziq, har yil yan-var-da
Men tu-g'il-gan bir kun bor.
Ke-li-sha-di meh-mon-lar,
Yo-g'ib tur-gan-da ham qor.

Barmoq tizimi turkiy xalqlar poeziyasining eng qadimgi turi bo'lib, xalq og'zaki ijodi ham shu she'riy tizim asosida yaratilgan. Barmoq tizimi turkiy xalqlar poeziyasining eng qadimgi turi bo'lib, xalq og'zaki ijodi ham shu she'riy tizim asosida yaratilgan. Barmoq tizimi shunchalik uzoq tarixga ega bo'lishiga qaramay hozirgacha eskirgan emas, balki hozir ham o'zbek poeziyasida yetakchi o'rinni egallab turibdi. O'zbek poeziyasida barmoq tizimining turi hijoli vazndan tortib, o'n olti hijoli vazngacha bo'lingan o'n uch turi mavjud. Misradagi hijolarning turlicha kelishi natijasida vaznning soni ham ko'payib boraveradi.

Masalan, Mirmuhsinning she'ridan olingan to'rt hijoda yezilgan.

Vatan ko'rkam, - 4

Bahor o'lkam. - 4

(Mirmuhsin)

Hozirgi o'zbek poeziyasidagi she'riy asarlarning ko'pi 7, 9, 11, 12, 13 hijolidir. 4, 5, 6 hijoli she'rlar ko'proq bolalar poeziyasida uchraydi. Yuqorida tilga olingan she'rlar vazni bir turkumga kiruvchi hijolar guruhidan tashkil topgan va shuning uchun ular sodda vaznga mansubdir. O'zbek poeziyasida sodda bilan birga qo'shma va erkin vaznlar ham mavjud. Agar she'ning har bayti ikki turkumga kiruvchi bo'g'inlar sonidan tashkil topsa

qo'shma vazn maydonga keladi.

Masalan: Mehnatda mehnatchilar, - 7

Ezildi bu tanlar. - 6

Bizlarda chin ozodlik - 7

Bo'larkin qachonlar - 6

(Hamza)

Gruzin shoiri Shota Rustavelining Maqsud Shayxzoda va Mirtemir tomo-nidan tarjima qilingan "Yo'lbars terisini yopingan pahlavon" nomli asarlari ham qo'shma vazn namunasidir.

Barmoq tizimidagi she'rlarni ifodali o'qishga faqat hijolarning tartibigagina emas, balki turoqlarga ham katta ahamiyat bermog'i lozim. Chunki turoq she'rning musiqiyiligini tartibga solib turuvchi asosiy vosita hisoblanadi. Boshqacharoq qilib aytganda, turoq she'rining ritmini va o'ynoqligini tartibga solib turuvchi asosiy omillardan biridir.

Masalan:

Na ko'kning (fonari) o'chmasdan,
Na yulduz (sayr etib) ko'chmasdan,
Na ufq (o'ramay) yoqut zar,
Na bulut (silkitmay) oltin par,
Tong kulub (boqmasdan) Jontemir,
Quyuq bir (zavq bilan) turardi.

(Uyg'un)

Mahsud Shayxzodaning "Muhammad to'pchi" balladasida esa turoqlar ichidagi hijolar 8-5 shakilda kelgan:

Ko'za olib / chiqqan yaxshi qiz,
Go'zallarning / xusni naqshi qiz,

Bir jom suv ber / suving ko‘p sovuq,
Kim uchun bu / aytganing qo‘shiq
U qahramon / bo‘lib kelajak,
Tez kelmasa / kelar bir darak!

(Maqsud Shayxzoda)

Erkin vaznda yaratilgan she‘rlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri ritmik pauzaning mo‘lligidir. Erkin vazndagi she‘rlarda jumlalarning qisqa-qisqa bo‘lishi uning jangovarlik ruhini oshiradi. Bunday asarlarda ohang, ritm, intonatsiya, urg‘u kuchli bo‘lganligi uchun ularni adabiy kechalarda o‘qish, deklamatsiya qilib aytish qulaydir. Erkin vaznli she‘r tuzilishi jihatidan o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, misralar hijolarining soniga emas, balki ohang, ritm va intonatsiya mutanosibiligiga asoslanadi. Erkin vazn hozirgi o‘zbek poeziyasida Hamza Hakimzoda Niyozining jangovar poetik asarlari orqali kirib kelgan bo‘lsa, keyinchalik Hamid Olimjon, G‘afur G‘ulom va boshqa shoirlar ijodida yanada kamol topdi. Hamid Olimjonning “Baxtlar vodiysi” she‘ri bu vaznning go‘zal namunasidir:

Dillar,
 havas bilan to‘ladi,
Yuzlar,
 sevinch sepib kuladi.
To‘rt tomoni osmon bilan
 o‘ralgan vodi
Kundan-kunga,
 husni ortgan oydek
 to‘ladi.
Ko‘m-ko‘k... Ko‘m-ko‘k... Ko‘m-ko‘k...

Bu she'rni ifodali o'qiganda, she'rning mazmuni va o'ziga xos erkin shaklidan kelib chiqqan maqulroq. Buning uchun shoirning fikri, hayajonini chuqur his etishga intilish kerak.

Muallif bunyodkor xalqimizning fidoyi mehnati tufayli diyorimizning gullab-yashnayotganini zo'r pafos bilan kuylaydi. Lirik qahramonning jo'shqin kayfiyatini, his tuyg'usini to'laroq ifoda etish uchun unga mos so'zlar tanlaydi va satrlari zinapoyalarga bo'lib yuboriladi. Zero fikrning jo'shqinligi va publitsistik ruhda bayon etishi erkin she'rga xos muhim xususiyatlardan biridir.

ARUZ VAZNDAGI SHE'RLARNI IFODALI O'QISH

Badiiy asarni ifodali o'qishda uning o'ziga xos ichki janriy xususiyatlari va muallif uslubini inobatga olish talab etiladi. 5-sinfda A.Qahhorning "Bemor" hikoyasi bilan U.Nosirning "Yur, tog'larga chiqaylik" she'rini, 6-sinfda Muqimiyning "Axtaring" g'azali bilan O'.Hoshimovning "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasini yoki 8-sinfda M.Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" fojiasi bilan Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanini bir xilda ifodali o'qib bo'lmaganidek, A.Navoiyning falsafiy g'azallari bilan H.Olimjon yoki G'afur G'ulomning ko'tarinki xarakterdagi hikmatlari o'qilishi jihatidan o'zaro farqlanadi.

Qolaversa, dramatik asarlar sahnada qo'yishga mo'ljallab yaratilgani va faqat aktyorlar ijrosidagina o'zining estetik, tarbiyaviy vazifasini to'la bajargani, nasriy asarlar tabiatan yakka tartibda o'qishni taqozo etgani kabi she'riy asarlar ifodali o'qilganidagina yurakdan his qilinadi. Demak, badiiy asarlar tadqiqi va tahlilida ham turli usullardan foydalaniladi. Ammo bunday usullarning birini she'riyat, ikkinchisini nasr, uchinchisini dramaturgiya uchun qat'iy chegaralab bo'lmaganidek, jamiki asarlarni ham faqat bir xil shakl va mazmunda, yagona nuqtai nazar asosida o'rganish mumkin emas.

Asar mohiyati janriy xususiyatlari zaminida o'rganilgandagina to'la ochilishi metodika ilmida allaqachon o'z tasdig'ini topgan. Jumladan, she'riy asarlar tahlili ifodali o'qishsiz mukammal bo'lmaydi. Binobarin, ifodali o'qish tahlil vositasi hamdir. U ko'p hollarda batafsil izohlashdan afzal turadi va o'quvchilarni badiiy asar matni bilan tanishtirishning birlamchi amaliy metodi vazifasini bajaradi.

She'riy asarni anglash, undagi muallif ko'zda tutgan niyatni, maqsad va vazifalarni tushunib etish, she'r g'oyasining mag'zini chaqish uni o'qishdan, yanada aniqrog'i ifodali o'qishdan boshlanadi. Imkoni bo'lsa, she'riy asarni professional aktyorlar, taniqli so'z ustalari, o'rni bilan esa ularning musiqa yordamidagi ijrosidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunda she'riy asardagi ritm, tovushlar uyg'unligi, so'zning ko'p ma'noliligi, ayni paytda har bir so'z va tovushning jarangi, yangi so'zning og'ori osonroq va ta'sirliroq tarzda namoyon bo'ladi⁶.

She'riy matndagi ma'no tovlanishlarini, jo'shqin hissiyot, teran mazmun, yuraklarni larzaga soluvchi musiqiy ohangni ifodali o'qimasdan turib his qilish, anglash va tushunish mushkul. Ifodali o'qishga mo'ljallanishi bu xildagi asarlarning o'ziga xos muhim jihatidir. She'riy matndagi ritm, turoq va qofiyadosh so'zlar uyg'unligidan tug'iladigan musiqiy ohang shunga qaratilgan. Zero, har qanday ohang eshitilgandagina o'z sehrini namoyon qiladi. She'r shoirning favqulodda holat tufayli yuzaga kelgan oniy lahzadagi hissiyotining jo'shqin ifodasi, hukm-xulosasi tarzida yaratilishiga ko'ra ham qisqa muddatda va ifodali o'qishni taqozo etadi.

Ming yillardan ortiqroq davrdagi adabiy merosimizning asosan, she'riy shaklda bo'lgani, qadim baxshilarning o'zlari yaratgan asarlarni o'zlari musiqaga solib, kuylab kelganlari (Masalan, Jaloliddin Rumiy va Boborahim Mashrablarning o'z g'azallarini rubob hamda tanbur jo'rligida kuylab elga

⁶ To'xliiev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. –T.: Yangi asr avlodi, 2006. 80-b.

manzur bo'lganlari) sababini shu xildagi asarlar og'zaki ijrosining ta'sirchan va ohangdorligidan izlamoq kerak.

Lirik she'riyat ijtimoiy ong shakllari taraqqiyoti bilan bog'liq suratda asta-sekin musiqadan uzoqlashib, faqatgina o'qish uchun mo'ljallangan adabiy janrga aylangan hozirgi davrda ham o'z tabiatidagi musiqiy ohangni tark etmadi. O'zbek adabiyoti ilmiga katta hissa qo'shgan Elbek va atoqli shoir zukko she'rshunos Maqsud Shayxzodaning lirik she'riyat ma'nosida "yurak she'ri", "rubobiy she'riyat" iboralarini ishlatishlari bejiz emas.

Mumtoz shoirlarimiz hamma nazmiy asarlarini aruz vaznida yozganlar. Shuning uchun o'quvchi aruzdan xabardor bo'lishi kerak, chunki she'rni o'z vaznida o'qishi lozim.

Aruz deb bir qancha Sharq xalqlari adabiyotida, jumladan, o'zbek mumtoz va qisman hozirgi adabiyotda ham qo'llanib kelayotgan maxsus vazn tizimiga hamda shu haqdagi ilmga aytiladi.

Aruz vazni nazmda tabiiy ravishda juda qadimdan amalda qo'llanib kelingan bo'lsa ham, aruz ilmi VIII asrda vujudga kelgan. Bu ilmning asoschisi Xalil ibn Ahmaddir (718-791). Xalil arab she'rlarining vaznini tadqiq qilib, 15 bahrdan iborat bir tizimga solgan va uni "Aruz" deb atagan.


Xalildan so'ng Abulhasan Axfash ismli bir adib aruzga "Mutadorik" deb ataluvchi yana bir bahrni qo'shadi. Keyingi aruzchilar esa arab nazmida qo'llanmaydigan yana uch bahrni aniqlab, ularni "Qarib", "Jadid" va "Mushokil" deb ataganlar. Shundan keyin bahrlarning soni o'n to'qqizga etadi. Ularning nomlari quyidagicha: hazaj, rajaz, ramal, munsarih, muzore', muqtazab, mujtass, sare', jadid, qarib, hafif, mushokil, mutaqorib, mutadorik, komil, vofir, tavi, madid, basit.

Ba'zi aruzchilar aruzga yana boshqa yangi bahrlarni ham kiritganlar. Biroq mashhuri shu o'n to'qqiz bahr bo'lib, Navoiyning "Mezonu-l-avzon"ida ham shular berilgan. Bobur o'zining aruzga bag'ishlangan

risolasida bu o'n to'qqiz bahrğa yana "Ariz" va "Amiq" deb ataluvchi ikki bahrni qo'shib bergan va bu bahrlarining mashhur emasligini ta'kidlab o'tgan.

Aruz vaznlari hijolarning talaffuzdagi, uzun-qisqaligiga asoslangandir. Aruz nuqtai nazaridan hijo uch xil – qisqa, cho'ziq va o'ta cho'ziq bo'ladi.

Ilmda qisqa hijoning belgisi  shaklida;

cho'ziq hijoniki  shaklida;

o'ta cho'ziq hijoniki  shaklida beriladi.

Qisqa unli bilan tugagan ochiq hijolar qisqa hijo hosil qiladi. Masalan, "Meni, "uni", "ana" degan so'zlar ikki qisqa hijodan iborat. bunday hijolar so'z oxirida vazn talabi bilan cho'ziq talaffuz qilinishi ham mumkin. "Men", "tan", "tun", "biz" kabi yopiq hijolar cho'ziq hijoga o'tadi. Arab va fors so'zlarida esa cho'ziq unli bilan tugagan ochiq hijolar ham cho'ziq hijo hosil qiladi. Arab va fors imlosida harf bilan, ya'ni alif, vov va yo bilan ifodalanadigan unlilar cho'ziq bo'ladi. Oxirida ikki undosh qator kelgan hijolar o'ta cho'ziq hijo hisoblanadi. Ba'zan bir undosh bilan tugagan hijolar o'ta hijoga o'tishi mumkin. masalan, "Yor", "zor", "nur", "sher" kabi so'zlar mumtoz adabiyotda doimo o'ta cho'ziq, hozirgi o'zbek nazmida esa ham cho'ziq, ham o'ta cho'ziq hijo hisoblanadi. O'ta cho'ziq hijolar misra o'rtasida bir cho'ziq va bir qisqa hijo o'rniga o'tadi. So'z oxiridagi undosh tovushni agar undan keyin unli bilan boshlangan so'z kelsa, vazn talabi bilan keyingi so'zga qo'shib ham o'qiladi. Masalan, "karam aylab" so'zlarini karam-ay-lab deb mafoiylun vaznida ham, ka-ra-may-lab deb foilotun vaznida o'qish mumkin.

Hijo eng kichik vazn birligi. Hijolardan rukn hosil bo'ladi. Ruknlar o'zak va tarmoq ruknlardan iborat bo'ladi. O'zak ruknlari "qusul" (birligi "qasl") va tarmoq ruknlarni "furu" (birligi "Far") deb ataydilar. Sakkizta asl yoki asliy rukn bor. Bularning ikkitasi uch hijoli bo'lib, ikki hijosi cho'ziq va

bir hijosi qisqadir. Birining qisqa hijosi rukn boshida, ikkinchisiniki o‘rtada. Birinchisini “Fauvlun”, ikkinchisini “Fo‘ilun” degan ma’nosiz so‘zlar bilan ifoda qilinadi. Ruknlarni ifodalash uchun ishlatiladigan bunday ma’nosiz so‘zlarni “Afo‘ilu tafo‘il” deb ataydilar.

Usulning, ya’ni asliy ruknlarning to‘rttasi to‘rt hijoli bo‘lib, bir hijosi qisqa, uch hijosi cho‘ziqdir. Birining qisqa hijosi rukn boshida, ikkinchisiniki oxirida, uchinchisiniki ikkinchi o‘rinda, to‘rtinchisiniki uchinchi o‘rinda. Bularning afo‘ilu tafo‘ili quyidagicha: mafoiylun, maf’uvlotu, foilotun, mustaf’ilun. Ikkita asliy rukn besh hijoli bo‘lib, uch hijosi qisqa va ikki hijosi cho‘ziqdir. Birining birinchi, ikkinchi va to‘rtinchi hijolari qisqa. Bu mutafo‘ilun. Ikkinchisining birinchi, uchinchi va to‘rtinchi hijolari qisqa. Bunisi mafo‘ilatun ruknidir.

Mazkur sakkiz aslning har birining furu’i, ya’ni tarmoq ruknlari bor. far’ yoki far’i rukn asliy ruknni o‘zgartirish natijasida vujudga keladi. Har bir o‘zgarishning o‘zining oti bor. O‘zgarishlarning umumiy nomi “zihof”dir. Arab aruzida rukndagi o‘zgarish hamma misralarda takrorlansa, “illat”, takrorlanmasa “zihof” deyiladi. Fors va turk aruzida har ikkisi ham zihof deyiladi. Misol uchun mafo‘ilun aslining zihof va far’larini ko‘raylik: uchinchi hijo qisqartirilsa, ya’ni cho‘ziqni qisqaga aylantirilsa, bu amalni “qabz” va hosil bo‘lgan mafoiylun far’i ruknni “maq buz”, ya’ni qabz etilgan deya ataydilar. To‘rtinchi hijo qisqartirilsa buni “kaff” va hosil bo‘lgan mafo‘iylun far’i ruknni “makfuf” deb yuritadilar. Birinchi qisqa hijo tushirilsa xarm foilun qoladi, buni maf’uvlun bilan almashtirib, “axrab” deb ataydilar. Bobur o‘z risolasida 44 ta zihof va 96 ta far’ bor, deydi.

Ikki yoki undan ortiq rukndan vazn hosil bo‘ladi. Vaznlar asliy ruknlar e’tibori bilan bahrlarga, ya’ni turkumlarga bo‘lib chiqilgan. Mafoiylun asli va uning furu’idan hosil bo‘lgan vaznlarni hazaj bahri, foilotun va uning furu’idan vujudga kelgan vaznlar bahrini “ramal, mustaf’ilun va uning

fuu'idan iborat vaznlarni "rajaz", mustaf'ilun va maf'uvlotu asllari va ularning furu'idan yasalgan vaznlarni "munsarih" bahri deb ataydilar va hakoza.

Nazmda har misra vaznga solinadi. Ikki misra bir bayt bo'ladi. Birinchi misraning birinchi rukn "sadr", ikkinchi misraning birinchi rukni ibtido deb ataladi. Baytning birinchi misrasidagi oxirgi rukn aruz, ikkinchi misrasidagi oxirgi rukn "zarb" deb yuritiladi. Ibtido bilan aruz va sadr bilan zarb o'rtasidagi ruknlar "Hashv" deyiladi.

Har bir vaznning oti uning bahriga, baytdagi ruknlarning soniga va ruknlarning zihofiga qarab qo'yilgan. Vazn nomidagi birinchi so'z shu vazn kirgan bahrning nomidir. Ikkinchisi baytning necha rukndan iboratligini bildiradi. Bayt sakkiz ruknli, ya'ni she'ning misrasi to'rt rukndan iborat bo'lsa "musamman" deyiladi. Bayt olti ruknli bo'lsa "musaddas", to'rt ruknli bo'lsa "murabba" deb ataladi. Uchinchi va undan keyingi so'zlar ruknlarning zihofini anglatadi. Rukn butun bo'lsa, "solim" deyiladi, masalan, she'ning har misrasida mafoiylun rukni to'rt marta qaytarilsa, uning vazni "Hazaji musammani solim" deb ataladi. Agar shu vaznning aruz va zarbidagi oxirgi hijolar tushirib qoldirilgan bo'lsa, ya'ni ruknlar "hazv" deb ataluvchi zihofga uchrasa "hazaji musammani mahzuf" vazni hosil bo'ladi.

Ba'zan vazn nomida zihofning o'ni sadru ibtido, aruzu zarb yoki hashv deb ham ko'rsatiladi. Chunki ba'zi zihoflarning o'ni cheklangan bo'lsa ham ba'zilariniki cheklanmagan.

A.Hojiahmedov aruz vaznidagi asarlarni ifodali o'qish uchun quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlaydi:

1. Avvalo, o'qiladigan asarning qaysi vaznda yozilganligini aniqlab, uning ruknlar tartibi va chizmasini belgilash, she'ni ana shu ruknlarga moslab o'qish zarur.

2. Aruz tizimi xususiyatlariga ko‘ra, ochiq bo‘g‘inlar tarkibidagi unlilar vazn taqozosi bilan qisqa yoki cho‘g‘iq talaffuz qilinishi mumkinligini yodda tutish shart.

3. Ifodali o‘qishda misralardagi o‘ta cho‘ziq bo‘g‘inlarni to‘g‘ri talaffuz qilish alohida ahamiyatga ega:

Yuz tuman nopok erdin yaxshiroq

Pok xotunlar ayog‘ining izi –

Fardni ifodali o‘qish uchun baytdagi “pok”, “nopok” so‘zidagi ikkinchi, “yaxshiroq” so‘zidagi oxirgi bo‘g‘inlardagi “o” unlisini cho‘zib talaffuz qilish lozim. Shunday o‘qilmasa, vazn buzilib, asar ohangiga putur etadi.

Qo‘sh undosh bilan tugallanuvchi o‘ta cho‘ziq bo‘g‘inlar qo‘llangan bo‘lsa, ular ikki xil talaffuz qilinadi: 5-sinf adabiyot darsligidan o‘rin olgan “Sher bilan durroj” masalidagi:

Har kishikim rostni bexost der,

Aytsa yolg‘on dog‘i el rost der. –

Baytida “rost” so‘zidagi (har ikki o‘rinda) “aytsa” so‘zining birinchi, “bexost” so‘zining ikkinchi bo‘g‘inlaridagi unlilar cho‘zib talaffuz qilinadi;

qo‘sh undosh bilan tugagan o‘ta cho‘ziq bo‘g‘inlar ko‘p hollarda oxirgi undoshdan alohida qisqa bo‘g‘in qilib talaffuz qilish tarzida o‘qiladi. Masalan, Navoiyning:

Mehr ko‘p ko‘rguzdim, ammo mehribone topmadim,

Jon base qildim fido, oromi jone topmadim. –

baytidagi “mehr”, so‘zi “meh-r” tarzida, “r” undoshi o‘zicha, alohida, qisqa bo‘g‘inga aylantirilib o‘qiladi.

4. Aruz tizimi asosida yaratilgan she’riy asarlarni ifodali o‘qishning yana bir sharti misra tarkibidagi so‘zlarning vazn talabi bilan qo‘shib o‘qilishidir.. yana aniqrohi, u yoki bu misrani tanlangan o‘lchovga muvofiq o‘qish uchun biron so‘z oxiridagi yopiq bo‘g‘inning so‘nggi undoshi o‘zidan keyin turgan unli bilan boshlanuvchi bo‘g‘inga qo‘shib o‘qiladi. Natijada avvalgi yopiq bo‘g‘in ochiq bo‘g‘inga aylanib, vazn ruknlariga moslashish yuz beradi. Jumladan, “Sher bilan durroj” masalining bir necha baytini o‘qib ko‘raylik:

Bor edi bir beshada bir tund sher
Vahshat aro ko‘k asadidek dalir.
Chun **bo‘lur erdi** bolalab zavqnok,
Mo‘r bolasin erdi halok.

Yuqoridagi baytlarni ifodali o‘qish uchun ta’kidlangan (ajratib ko‘rsatilgan) so‘zlarni bir-biriga qo‘shib “vahsha-ta-ro”, “bo‘lu-rer-di” tarzida talaffuz qilish shart. Shunday qilinsa, misralar tarkibidagi so‘zlar vazn ruknlariga moslashadi⁷.

A.Hojiahmedov yuqorida sanalgan asosiy holatlardan tashqari, bir qator juz’iy jihatlar ham borligini, ularni puxta bilib olmay turib, aruz vaznidagi she’rlarni ifodali o‘qishga erishib bo‘lmasligini qayd qiladi. Bu jihatlar quyidagilardan iborat:

1. O‘rtasida ikkilangan qo‘sh undosh keluvchi qattiq, achchiq, yetti, sakkiz, hamma kabi so‘zlarda vazn talabi bilan o‘rtadagi undoshlardan biri tushirib o‘qilishi mumkin. Masalan:

⁷ Hojiahmedov A. Maktabda aruz vaznini o‘rganish. –Toshkent, O‘qituvchi, 1995. 96 b.

O‘n **sakiz** ming olam oshubi agar boshindadur,
Ne ajabkim sarvinozim o‘n sakiz yoshindadur.

Navoiy.

2. Ayirish belgisi, arab alifbosida “ayn” harfi bilan tugallanuvchi o‘ta cho‘ziq bo‘g‘inlarning o‘qilishi ham o‘z xususiyatlariga ega. Navoiyning “Hayratul abror” dostonidan olingan:

So‘z bila naf’ o‘lmasa el peshasi,
Yaxshi kerak ko‘nglida andeshasi. –

baytidagi “naf’” so‘zi “naf” tarzida bir cho‘ziq bo‘g‘in sifatida talaffuz qilinsa:

Xayr muyassar gar emas el bila,
Naf’ tegurmak ham o‘lur til bila. –

baytida shu so‘zning o‘zi “naf-’i” tarzida bir cho‘ziq va bir qisqa bo‘g‘in qilib o‘qiladi.

1. Ayrim so‘zlarda vazn talabi bilan oxirgi undosh tushirib o‘qiladi. Jumladan “Farhod va Shirin” dostonida Qoranning Farhodga bergan javobini ifodalovchi:

Aning suv bermagida holoti bor,
Ki andin aylamasmiz elga axbor. –

baytidagi suv so‘zi o‘z holicha to‘la talaffuz qilinsa, shundan keyingi baytning o‘zida, ya’ni:

Suv bersa o‘yla afzorig‘a ustod,
Yuz yil xoro demaykim yo‘nsa po‘lod. –

Misralaridagi suv so‘zi vazn taqozosi bilan “su” tarzida qisqa bo‘g‘in qilib, ya’ni “v” undosh tushirilib talaffuz qilinadi.

2. Shoirlarning “iy” qo‘shimchasi bilan tugallanuvchi taxalluslari ham ba’zida vazn taqozosi bilan “y” tovushi tushirilib talaffuz qilinadi.

Hamzangiz qon to‘kkali qasd etsa har dam ul zamon,
La’lingizdan ko‘p bo‘lur **Sakkoki**ga jon minnati.

vazn talabi bilan **Sakkokiga** tarzida o‘qiladi⁸.

A.Rustamov she’rni vaznga solib o‘qish, ya’ni aruzdan amaliy foydalanishni yengillashtirish uchun hijolarning soniga qarab turkumlarga bo‘lish, zihof tushunchasidan voz kechish va “Afo‘ilu tafo‘il”ni o‘zgartirish kerak, deb hisoblaydi. U aruz vaznidagi she’rlarni ifodali o‘qishda yangicha usulni taklif qiladi. Aruzshunos olim shunday yozadi: “Albatta, she’rxonlarimizni she’rning vaznini aniqlash va uning vaznini buzmasdan o‘qish qiziqtiradi. Shuni nazarga olib biz quyida o‘zbek nazmida ko‘p ishlatiladigan vaznlarning ro‘yxatini ruknlarini yangichalashtirib beramiz. Bunda “t” rukn boshini ifodalaydi. “ta” va “na” qisqa hijoni, “tan” va “nan” cho‘ziq hijoni bildiradi:

Olti hijoli vazn

1. tan-nan-na ta-nan-nan

etti hijoli vaznlar

1. ta-nan-na-nan tan-na-nan

2. tan-na-nan-na ta-nan-nan

⁸ Hojiahmedov A. Maktabda aruz vaznini o‘rganish. –Toshkent, O‘qituvchi, 1995. 98 b.

Sakkiz hijoli vaznlar

1. ta-nan-nan-nan ta-nan-nan-nan
2. ta-na-nan-nan (yoki ta-nan-nan-nan) tan-na-nan-nan (yoki ta-nan-nan-nan)
3. ta-nan-nan ta-nan-nan ta-nan

To‘qqiz hijoli vaznlar

1. ta-nan-nan ta-nan-nan ta-nan-nan

O‘n hijoli vaznlar

1. tan-nan-na ta-nan-na-nan ta-nan-nan
2. tan-nan-na ta-nan-nan-na ta-na-nan

O‘n-o‘n bir hijoli vaznlar

1. tan-na-nan-nan (yoki ta-na-nan-nan) tan-na-nan-nan (yoki ta-na-nan-nan) tan-nan (yoki ta-nan, yoki tan-na-nan)
2. tan-na-nan-nan (yoki ta-na-nan-nan) ta-nan-na-nan tan-nan (Yoki ta-na-nan, yoki tan-na-nan)”⁹ va h.k.

Umuta’lim maktablarida va akademik litsey hamda kasb-hunar litseylari adabiyot dasturlaridan o‘rin olgan asarlarning katta qismi she’riyat namunalari ekani uning adabiyotimiz tarixidagi mavqei, tarixiy taraqqiyoti tufaylidir. Afsuski, dasturlarda she’r matni, xususan, poetikasi ustida ishlashga juda kam e’tibor berilgan. She’riy matnlar so‘ngida ilova qilingan savol va topshiriqlarning aksariyatida she’rni yodlash, undagi o‘xshatish, jonlashtirish, sifatlashlarni topish va belgilash so‘ralgan, xolos.

Holbuki, har qanday asarni san’at hodisasi sifatida qabul qilish zamirida matn ustida ishlashdek mashaqqatli, ijodiy vazifa turadi.

A.Hojiahmedov aruz vaznidagi asarlarni o‘rganishda ko‘rgazmalilikning xilma-xil usullaridan keng foydalanish lozimligi maqsadga muvofiq ekanligini ta’kidlaydi: Aruz ilmini o‘rganishda turli jadvallardan foydalanish

⁹ Rustamov A. Adiblar odobidan adablar. –T.: Ma’naviyat, 2003. -112.

ijobiy natijalar beradi. Xususan, o'zbek aruzida qo'llaniladigan asl ruknlar, she'riyatimizda foydalaniladigan bahrlar va ularning tarkibi, har qaysi bahrning vaznlar doirasi, vaznlarning ruknlar va chizmalar ko'rsatkichi bo'yicha alohida-alohida jadvallar tuzib, darslar va to'garak mashg'ulotlarida keng qo'llash zarur.

Aruzdagi asarlarni ifodali o'qishga o'rgatishda ham maxsus jadvallar qo'l keladi. Bu xil jadvallarda bir yoki bir necha baytni ruknlarga bo'lib o'qish, o'ta cho'ziq va qo'shib o'qiladigan o'rinlar talaffuzi rangli yozuvlar bilan aniq ko'rsatib qo'yiladi.

Aruz tizimi asosida yaratilgan asarlarni ifodali va badiiy o'qishga o'rgatishda mumtoz adabiyot namunalari yozilgan gramplastinkalarning ahamiyati ham kattadir¹⁰.

Biz olimning qimmatli fikrlariga qo'shimcha ravishda ta'kidlab o'tmoqchimizki, bugungi davrimizda texnikaning uzluksiz rivojlanishi natijasida adabiyot darslarida o'quvchilarni ifodali o'qishga o'rgatishning yangi-yangi vositalaridan foydalanish imkoniyati mavjud. Xususan, jadvallarni komp'yuterlarda **Microsoft offis Pover Point** dasturi orqali slaydlar tarzida tayyorlash va ularni maxsus ekranlarga tushirish mumkin.

Biz o'quvchilarga aruz vaznidagi she'rlarni ifodali o'qishga o'rgatishda foydalanish mumkin bo'lgan quyidagi slaydlar paketini tavsiya qilamiz (1-6-rasmlar):

¹⁰ Hojiahmedov A. Maktabda aruz vaznini o'rganish. –Toshkent, O'qituvchi, 1995. 188 b.

Gʻazal vaznini aniqlash

Qisqa va choʻziq hijolarni aniqlash
Oʻta choʻziq hijolarning talaffuzi
Vasl hodisasi
Tutuq belgisining ahamiyati
Ayrim undoshlarning tushirib oʻqilishi

1-rasm

Qisqa va choʻziq hijolarni aniqlash

Ke-cha - kel-gum/-dur - de-bon - ul /- sar-vi - gul-roʻ/- kel-
ma-di

— V — —/ — V — —/ — V — —/ —
V —

Koʻz-la-rim-gʻa/ - ke-cha - tong - ot/-qun-cha - uy-qu/ -
kel-ma-di

— V — —/ — V — —/ — V — —/ —
V —

• Alisher Navoiy: “Kelmadi”

2-rasm

Oʻta choʻziq hijolarning talaffuzi

- **Har - ki-shi-kim/ - rost-ni — be/-xost-der,**
- — v — —/ — v — —/ — v —
- **Ayt-sa — yol/-gʻon - do-gʻi — el/-rost-der**
- — v — —/ — v — —/ — v —

3-rasm

Vasl hodisasi

Bor - e-di - bir /- be-sha-da - bir /- tund - sher
Vah-sha-t - a-ro / - ko'k - a-sa-di/-dek - da-lir.
Chun - **bo'** - **lu-r** - er /- **di** - bo-la-lab /- zavq-nok,
.....

4-rasm

Tutuq belgisining ahamiyati

• So'z - bi-la - naf' /- o'l-ma-sa - el/ - pe-sha-si,

• Yax-shi - ke-rak/ - ko'ng-li-da - an/-de-sha-si.

• -----

Xayr - mu-yas-sar - gar - e-mas - el - bi-la,

Naf' - te-gur-mak - ham - o'-lur - til - bi-la. (Na-f'i)

5-rasm

Ayrim undoshlarning tushirib o'qilishi

• A-ning - **su**v - ber-ma-gi-da - ho-lo-ti - bor,

• Ki - an-din - ay-la-mas-miz - el-ga - ax-bor.

• -----

Suv - ber-sa - o'y-la - af-zo-ri-g'a - us-tod, (**su**)

Yuz - yil - xo-ro - de-may-kim - yo'n-sa - po'-lod.

6-rasm

“Videoko‘zgu barcha tasviru yozuvlarni, ko‘zga ko‘rinadigan barcha jonzotu mavjudotlarni, test topshiriqlaridan tortib, insho matnlarigacha tele(mul’ti) ekranga chiqarib berishi mumkin. “Videoglazga” nisbatan kodoskopning imkoniyatlari ancha chegaralangan. Kodoskop faqatgina shaffof plyonkadagi tasvirlarni ekranga chiqarishga moslashtirilgan. Oq qog‘ozdagi tasvir kodoskopda ko‘rinmaydi. Shuning uchun ekranga tushirilishi lozim bo‘lgan har bir tasvir (test, yozuv, shakl) rangsiz (shaffof) plyonka varaqchalarga rangli flomasterlarda yozilishi maqsadga muvofiq. ...ta’lim texnologiyasida “portlash” effektini beradigan eng yangi texnika vositasi bu – videooko. Uning ishlatilish ko‘lami, ichki imkoniyatlari benihoya keng bo‘lib, o‘qituvchidan fidoyilik, katta ijodiy tajriba va pedagogik mahorat talab qiladi. Videookoning qulayligi, benuqsonligi shundaki, u videokameraga o‘xshash ko‘z vazifasini o‘taydi. Unda hamma narsa bevosita teleekran yoki ko‘chma ekranga qayta tasvir uchun uzutilaveradi. Hatto o‘zi tuzgan test topshirig‘ini sharhlab berayotgan talaba o‘z nutqidagi kamchiliklarni bevosita monitor (televizor) ekranida ko‘rishi va o‘zi bartarf etishi mumkin. Bu o‘quv texnik vosita ona tili ta’limi jarayonini tafakkurning mutlaq tantanasiga, inson aqlu zakovatining turli qirralarini ochib beruvchi, bolaga o‘z nutqiy madaniyati, suxandonlik iqtidorini namoyish qilish imkoniyatini yaratib beruvchi muhim sinov maydoniga aylantiradi” – deyiladi “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” o‘quv qo‘llanmasida¹¹. Videookoning adabiyot darslarida, xususan, o‘quvchilarning ifodali o‘qish malakalarini rivojlantirishdagi ahamiyati, so‘zsiz, juda kattadir.

So‘nggi yillarda adabiyot darslarida karaoke usulidan ham foydalanilmoqda. Komp’yuter ekranidagi matnga qarab qo‘shiq aytish va bu ijroning originaliga nisbatan baholanishi haqida yaxshi bilamiz. Adabiyot darslarida ifodali she’r o‘qish uchun mazkur dasturdan foydalanish samarali

¹¹ To‘xliiev B., Shamsieva M., Ziyadova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. –T.: Yangi asr avlodi, 2006. 28-29 b.

natijaga erishish imkonini beradi. Masalan, o'quvchi oldin ifodali o'qilgan she'r, g'azalni eshitib ko'radi, so'ng o'zi o'qiydi va komp'yuter tomonidan baholanadi.

Xulosa qilib shuni aytish o'rinliki, o'quvchilarni ifodali o'qishga o'rgatishda zamonaviy uslullardan, axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali ta'lim sifatining yaxshilanishiga, o'quvchilarning adabiyot darslariga qiziqishlarini orttirishga erishish mumkin.

III BOB.

NASRIY VA DRAMATIK ASARLARNI IFODALI O‘QISH

NASRIY ASARLARNI IFODALI O‘QISH

Tayanch sinflar adabiyot darsliklaridan bir qancha nasriy asarlar o‘rin olgan. Biz ularni jadval ko‘rinishida taqdim qilmoqdamiz (3.1-3.5-jadvallar):

3.1-jadval

5-sinf adabiyot darsligidan o‘rin olgan nasriy asrlar ro‘yxati

Asar nomi	Janri	Muallifi
“Al-jome’ as-sahih”	hadis	Imom al-Buxoriy
“Yovvoyi echkilar bilan cho‘pon”	masal	Ezop
“Kiyik bilan tokzor”	masal	Ezop
“Bo‘ri bilan laylak”	masal	Ezop
“Eshak bilan baqalar”	masal	Ezop
“Ustiga tuz yuklangan eshak”	masal	Ezop
“Burgut, zag‘cha va cho‘pon”	masal	Ezop
“To‘maris”	hikoya	Mirkarim Osim
“Shiroq”	hikoya	Mirkarim Osim
“Uch og‘a-ini botirlar”	ertak	Xalq og‘zaki ijodi
“Susambil”	ertak	Xalq og‘zaki ijodi

3.2-jadval

6-sinf adabiyot darsligidan o‘rin olgan nasriy asrlar ro‘yxati

Asar nomi	Janri	Muallifi
“Sariq devni minib”	roman	X.To‘xtaboev
“Shum bola”	Qissa	G‘afur G‘ulom
“Gulliverning sayohatlari”	Roman	Jonatan Svift
“Bemor”	Hikoya	Abdulla Qahhor
“Oltovlon va yettinchi” (“Qiyomat”)	Roman	Chingiz Aytmatov
“Muzqaymoq”	Hikoya	Odil Yoqubov
“Urushning so‘nggi qurboni”	Hikoya	O‘tkir Hoshimov
“Qoplol”	Hikoya	Said Ahmad
“Sobiq”	Hikoya	Said Ahmad
“Qissai Rabg‘uziy”	Qissa	Rabg‘uziy
“Zarbulmasal”		Gulxaniy
“Afandining qirq bir pashshasi”	Qissa	Zohir A‘lam
“Yulduzlar mangu yonadi”	Qissa	Tog‘ay Murod
“Nizomning tantiligi” (“Avlodlar dovoni”)	Roman	Pirimqul Qodirov

3.3-jadval

7-sinf adabiyot darsligidan o‘rin olgan nasriy asrlar ro‘yxati

Asar nomi	Janri	Muallifi
“Naqorot”	Hikoya	Umar Sayfiddin
“O‘zbeklar”	Hikoya	Shukur Xolmirzaev
“Qo‘rqinch bir jasorat” (“Mehrobdan chayon”)	roman	Abdulla Qodiriy

3.4-jadval

8-sinf adabiyot darsligidan o‘rin olgan nasriy asrlar ro‘yxati

Asar nomi	Janri	Muallifi
“Chinor”	Roman	A.Muxtor
“Ufq” (“Qochoq”)	Roman	S.Ahmad
“O‘lsam ayrilmasman quchoqlaringdan”	Maqola	O.Sharafiddinov
“Nur va soyalar”	Hikoya	R.Thokur

3.5-jadval

9-sinf adabiyot darsligidan o‘rin olgan nasriy asrlar ro‘yxati

Asar nomi	Janri	Muallifi
“Qisasi Rabg‘uziy”	Qissa	Nosiriddin Rabg‘uziy
“O‘tkan kunlar”	roman	A.Qodiriy
“Kecha va kunduz”	roman	Cho‘lpon
“Qutlug‘ qon”	roman	Oybek
“Ulug‘bek xazinasi”	roman	O.Yoqubov
“Asrga tatigulik kun”	roman	Ch.Aytmatov

Ma'lumki, nasriy asarlarni ifodali o'qishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Ertak yoki hikoya, qissa yoki romanlarni o'qishning bir-biridan farqlanadigan hamda mushtarak jihatlari ko'zga tashlanadi. 5-6-sinflarda masal, ertak kabi janrlardagi asarlarga alohida o'rin berilgan. Xususan, 5-sinf adabiyot darsligida o'zbek xalq ertaklari, jahon adabiyotining mashhur bolalar yozuvchilarining adabiy ertaklari alohida o'rin tutadi. Ertaklarning an'anaviy boshlanmalari ba'zan saj' usulida beriladi. Masalan, *"Ertagi yo ertagi, echkilarning burtagi, qirg'ovul qizil ekan, quyrug'i uzun ekan, g'ozlar karnaychi ekan, o'rdak surnaychi ekan, ola qarg'a azonchi, qora qarg'a qozonchi, chumchuq chaqimchi ekan, to'rg'ay to'qimchi ekan, bo'ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan, ertagimning eri bor, yetti kunlik yeri bor, yetti kunlik yerida dumi kalta bo'ri bor..."* tarzida sajda yozilganligi uchun ritmi o'ziga xosdir. Boshqa xil ertaklarning muqaddimasi vazmin o'qiladi: *"Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim o'tgan zamonda bir kishi bo'lgan ekan. Uning uchta o'g'li bor ekan, uchovi ham o'qigan, oq-qorani tanigan, yuzlari oyday, o'zlari toyday, yomon bilan yurmagan, yomon joyda turmagan ekan..."*.

Ertak matnidagi tinish belgilarga alohida ahamiyat berish, vergul qo'llangan o'rinlarda qisqa pauza, gap oxirida pauza qilish, asardagi eng muhim o'rinlarga, personajlarning xarakter qirralarini ochib beruvchi so'z va jumlalarga urg'u berib o'qish muhim ahamiyatga ega. Bu hol ertak mazmunining o'quvchilar xotirasida muhrlanib qolishiga, undagi ezgulik va yovuzlikni ajratib olishlariga yordam beradi.

5-sinf darsligida "Uch og'a-ini botirlar" ertagi berilgan. Ertak matnidagi tinish belgilari, sintagmalarda xos pauza, qisqa pauza, kichik pauzalarga amal qilish, asardagi e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan so'z va jumlalarga, gaplarga urg'u berib o'qish bilan bog'liq quyidagi o'qilish usulidan foydalanish mumkin:

“Bir bor ekan (*qisqa pauza*), bir yo‘q ekan (*qisqa pauza*), qadim zamonda (*pauza*) bir kishi bo‘lgan ekan (*pauza*). Uning uchta o‘g‘li bo‘lgan ekan (*qisqa pauza*), uchovi ham o‘qigan (*qisqa pauza*), oq-qorani tanigan (*qisqa pauza*), yuzlari oyday (*qisqa pauza*), o‘zlari toyday (*qisqa pauza*), yomon bilan yurmagan (*qisqa pauza*), yomon joyda turmagan ekan (*pauza*). To‘ng‘ichi (*qisqa pauza*) – yigirma bir yoshda (*qisqa pauza*), o‘rtanchasi (*qisqa pauza*) – o‘n sakkiz yoshda (*qisqa pauza*), kenjasi (*qisqa pauza*) – o‘n olti yoshda ekan (*pauza*).

Otasi (*qisqa pauza*) bir kuni bularni o‘z oldiga chaqirib (*qisqa pauza*), har birining peshanasidan silab (*qisqa pauza*), bunday debdi (*qisqa pauza*):

– O‘g‘illarim (*qisqa pauza*), men boy emasman (*qisqa pauza*), mendan qolgan narsalar (*qisqa pauza*) sizning turmushingiz uchun etmaydi (*qisqa pauza*), endi mendan biror narsa umid qilib o‘tirmanglar (*pauza*). O‘lganimdan keyin baxtsiz bo‘lib qolmanglar (*qisqa pauza*), deb sizlarni o‘qitdim (*qisqa pauza*), boqdim-ko‘rdim (*qisqa pauza*), voyaga yetkazdim (*qisqa pauza*), quvvatli bo‘ldingizlar (*qisqa pauza*), yarog‘ ushlashni o‘rgatdim (*qisqa pauza*), yarog‘ ushlashga usta bo‘ldingizlar (*qisqa pauza*), qo‘rqitmay o‘stirdim (*qisqa pauza*), botir bo‘ldingizlar (*pauza*). Yana uch narsani aytaman (*qisqa pauza*), quloqlaringizga olib (*qisqa pauza*), eslaringizdan chiqarmanglar (*qisqa pauza*): to‘g‘ri bo‘ling (*pauza*) – bexavotir bo‘lasiz. Maqtanchoq bo‘lmang (*pauza*) – uyatga qolmaysiz. Dangasa bo‘lmang (*pauza*) – baxtsiz bo‘lmaysiz (*pauza*). Bundan boshqasini endi o‘zingiz biling (*pauza*). Qora toyni (*qisqa pauza*), saman toyni (*qisqa pauza*), ko‘k toyni asboblari bilan tayyorlab qo‘ydim (*pauza*). Xurjunlaringizni bir haftalik ovqat bilan to‘lg‘azdim (*pauza*). Baxtingiz yo‘lda (*qisqa pauza*), uni topib olmoq uchun safarga chiqingiz (*qisqa pauza*), dunyoni tanimay (*qisqa pauza*), dunyo kishisi bo‘lmaysiz (*pauza*). Baxt

qushini ushlamoq uchun baxt oviga chiqinglar (*pauza*)//. Xayr endi (*qisqa pauza*), o'g'illarim (*qisqa pauza*)//, deb so'zini tamom qilibdi (*pauza*)”.

Ushbu parchaga oid shartli belgilar: to'g'ri chiziq – mantiqiy urg'u olgan bo'laklar; // belgisi – psixologik pauza

Hikoya janridagi asarlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, kishi hayotidagi ma'lum bir voqeaning tasvirlanayotganligini nazarda tutgan holda matndagi muallif nutqi, tabiat tasviri, dialoglar hamda qahramonning ichki kechinmalarini puxta o'rganish lozim. Masalan, 5-sinf darsligidan o'rin olgan **A.Qodiriyning “Uloqda”, Oybekning “Fonarchi ota”, G'afur G'ulomning “Mening o'g'rigina bolam”** hikoyalarining har biri o'ziga xos o'qiladi. “*Uloqda*” hikoyasidagi maqtanchoq uloqchi bolaning xatti-harakatlari, so'zlari tufayli beixtiyor jilmayib qo'yganingizni sezmay qolasiz, miriqib kulasiz, uloq oxirida esa fojiali voqeaning shohidi bo'lgan bolaning faqat bolalargagina xos o'yidan siz ham ta'sirlanasiz. “*Fonarchi ota*” hikoyasidagi dam miyig'ida kulishga, dam g'amgin holatga boshlaydigan tasvir, “*Mening o'g'rigina bolam*”dagi og'ir zamona zalvorini his qilish, har qanday qiyin sharoitda ham odamiylikni avlodlarga meros qilib qoldirayotgan qora buvining keksalarga xos sodda, salobatli, mehribon ovozini tuyish ifodali o'qish tufayligina amalga oshadi.

“Mening o'g'rigina bolam” hikoyasi asosida ba'zi tinish belgilariga doir mashqlarni ko'rsatib o'tmoqchimiz.

– *Voy o'lay (ovoz balandlanadi), qutlug' uydan quruq ketasanmi (ovoz balandlashadi), bolam (ovoz pasayadi). Bir nima olib ket (ovoz pasayadi). To'xta (ovoz balandlashadi), ha (ovoz balandlashadi), darvoqi (ovoz balandlashadi), oshxonada bitta yarim pudlik qozon bor (ovoz pasayadi).*

Asarni shu taxlit tushunib o'qish va uni chuqur tahlil etish o'quvchilar og'zaki va yozma nutqining rivojlanishiga ham ta'sir etadi. Chunki badiiy asarni o'qib chiqqan o'quvchigina asar haqida o'z fikrini ham yozma, ham

og‘zaki bayon eta oladiki, bu uning kelgusi hayotga tayyor bo‘lishida, ya’ni fikrini mustaqil bayon etish va himoya qila olish malaka va ko‘nikmalarini hosil qilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Qissalarda bir emas, bir necha personajlar qatnashishi, shuningdek, ularning xarakterini, janr xususiyatlarini hisobga olgan holda ifodali o‘qishni tashkil qilish lozim. 5-sinf adabiyot darsligidan Oybekning “Bolalik” avtobiografik qissasidan “Bolaning ko‘ngli poshsho” parchasi o‘rin olgan. Ushbu parcha osoyishta, shoshilmay o‘qilishi lozim.

Roman janridagi asarlarni ifodali o‘qish bir qancha murakkabliklarga ega. Roman qahramonlari nisbatan ko‘p bo‘lishini nazarda tutsak, ularning har biriga xos xususiyatlarni: yurish-turishi, nutqi, muomalasi, kasbi-kori, jamiyatdagi o‘rmini tushunib yetmasdan turib, asarni ifodali o‘qishga kirishish qiyin.

Roman janridagi asarlarning ichki turlarini hisobga olish, zamonaviy yoki tarixiy, sarguzasht yoki falsafiy, hayotiy-maishiy yoki harbiy roman ekanligidan kelib chiqqan holda, obrazlarning nutqi, xatti-harakati, so‘zlash uslubini ko‘z oldimizga keltirib, ovoz chiqarmasdan bir necha marta o‘qib chiqqandan keyin, tinish belgilari, intonatsiya, pauza, urg‘u kabi nutq vositalariga ahamiyat qaratish tufayli ifodali o‘qishni sifatli tashkil qilish mumkin bo‘ladi.

DRAMATIK ASARLARNI IFODALI O‘QISH

Dramani ovoz chiqarib o‘qish unchalik oson ish emas. Uni talab darajasida o‘qish uchun bir necha kasb egasining yordami kerak: rejissyor, aktyor, rassom, musiqachi. Tasavvur qilingki, sizga hali o‘zingiz ko‘rmagan, faqatgina senariysi o‘qilgan fil’m haqida fikr bildirishni taklif etdilar. Biz bo‘lsak, o‘quvchilarga bunday vazifani har mahal dramatik asarni o‘rganish

jarayonida beramiz¹². Bundan ko‘rinadiki, dramatik asarlarni o‘rganish jarayonida ifodali o‘qishni tashkil etish boshqa xil tur va janrlardagi asarlarni ifodali o‘qishga nisbatan bir qadar murakkab kechadi. Shu bois bo‘lsa kerak, adabiyot darsliklarida dramatik asarlarga ko‘p o‘rin ajratilmaydi.

5-, 9-sinflar adabiyot darsliklaridan o‘rin olgan dramatik asarlarning ro‘yxatini 3.6-3.7-jadvallarda joylashtirdik:

3.6-jadval

8-sinf adabiyot darsligidan o‘rin olgan dramalik asarlar

Asar nomi	Muallifi
“Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari” (drama)	Hamza Hakimzoda Niyoziy
“Mirzo Ulug‘bek” (tragediya)	Maqsud Shayxzoda

3.7-jadval

9-sinf adabiyot darsligidan o‘rin olgan dramalik asarlar

Asar nomi	Muallifi
“Sohibqiron” (dramatik doston)	A.Oripov
“Otello” (tragediya)	V.Shekspir

Dramatik asarlarni o‘rganish jarayonida ifodali o‘qish muhim ahamiyat kasb etadi. Aslida dramatik asar mohiyati sahnada aktyorlar ijrosi tufayli yorqin ochiladi. Dramatik asarlarni she‘riy yoki nasriy asarlar kabi ifodali o‘qish sira mumkin emas. Dramatik asarlarda muallif nutqi mavjud bo‘lmaganligi, voqealar monolog va dialoglar asosiga qurilganligi tufayli nasriy va she‘riy asarlardan tubdan farq qiladi.

¹² Активные формы преподавания литературы: лекции и семинары на уроках в старших классах. Составитель Р.И.Альбеткова. – М.: Просвещение, 1991. – С.100.

Dramatik asar qahramonlarining nutqi epik asar qahramonlarining nutqiga nisbatan dinamik hisoblanadi. Dramatik asarlarda nutqning aniqligi, uslubi, temp va ritm, pauzalar katta ahamiyatga ega¹³.

Dramatik asarlarni o'qishda muallif izohi – remarkaga alohida e'tibor qaratish joiz. Remarkalar asarni ifodali o'qimoqchi bo'lgan o'quvchiga katta yordam beradi. Binobarin, remarkada asar ishtirokchilarining tashqi qiyofasi, yoshi, xulqi, xatti-harakatlari, qiliqlari, sahna manzarasi va boshqalar yoritiladi. Demak, muallif tomonidan bayon etilgan remarka asarni yaxshi tushunish, rollarga bo'lib ifodali o'qish uchun juda zarur. Remarka p'esa qahramonlarining kimligi, oilada va jamiyatda tutgan mavqei, xarakter xususiyatlari to'g'risidagi izoh tarzida o'rganiladi. P'esani o'qish yoki sahnalashtirishda remarkani, har bir qahramonning uch-to'rt replikasini diqqat bilan qayta-qayta o'qib chiqish, izohlash va shu yo'l bilan o'quvchilarni rollar bo'yicha o'qishga tayyorlash, o'qishdan keyin kim qanday o'qiganligini muhokama qilish yaxshi natijalar beradi. O'qituvchi ayrim o'quvchilarga teatr tanqidchilari rolida so'zga chiqishni taklif etishi ham mumkin. Ular aktyorlar ishini tahlil qilib chiqadilar¹⁴.

Masalan, M.Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” tarixiy fojiasiga yozilgan remarka bilan tanishamiz:

M i r z o U l u g ‘ b e k i b n S h o h r u h – buyuk olim, Movarounnahr hukmdori; 56 yoshda.

A b d u l l a t i f M i r z o – uning o'g'li; 30 yoshda.

A l i Q u s h c h i – Ulug‘bekning shogirdi va mahrami. Astronom; 35 yoshda.

S a k k o k i y – mashhur shoir. Ulug‘bekning do'sti; 45 yoshda.

S h a y x u l i s l o m B u r h o n i d d i n – zamonaning tarqqiyparvar ulamolaridan; 65 yoshda.

A b b o s – Sayid Obidning o'g'li. Abdullatifning mahrami; 28 yoshda.

A b d u r a z z o q S a m a r q a n d i y – mashhur tarixchi; 35 yoshda.

¹³ Oripov K., Obidova M. Ifodali o'qish. –Toshkent: O'qituvchi, 1994, 100-bet.

¹⁴ Niyozmetova R.X. O'zbek tili mashg'ulotlarida badiiy matnni o'qish. // til va adabiyot ta'limida yangi pedagogik texnologiyalar (Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari). 1-qism. – Toshkent, 2006. 15-18-betlar.

Bek Arslon – sardor; 50 yoshda.

Mavlono Shamsiddin Muhammad Miskin – Samarqand qozisi; 70-yoshda.

Piri Zindoni (Hasan Ohangar) – mahbus; 80 yoshda.

Berdiyor –Ulug‘bekning navkari; 35 yoshda.

Ota Murod – dehqon; 67 yoshda.

Chin, Hind, Farang, Misr, Rus elchilari.

Amir Temurning arvohi.

Samarqand atrofida Ko‘hak tog‘ining etagida, uch oshiyonalik rasadxonaning old tomoni va eshigi ko‘rinadi.

Hammayoq qorong‘i. Faqat koshonaning derazalaridan xira yorug‘ nurlar ko‘rinadi. Osmon g‘oyat yorqin. Go‘yo firuza rang marmar ko‘zguga sonsiz oltin zarralar sepilgandek, fazoda va bepoyon samovotda sanoqsiz yulduzlar porlaydi. Ko‘kdagi oy o‘rog‘i ufqlardan ko‘tarilib ketmoqda. Bir tomonda baland minorada Mirzo Ulug‘bek qo‘ddarini qovushtirgan holda koinotning bu sehrli kitobini sayru tomosha etmoqda.

Ushbu remarka ikki qismdan iborat bo‘lib, uning birinchi qismida personajlarning nomlari, yoshi, kasbi haqida qisqa ma‘lumot bayon qilingan. Uni ifodali o‘qishda personajlarning nomlarini aniq talaffuz etish hamda bir oz pauza qilish, so‘ng tiredan keyingi bayon o‘qilishi maqsadga muvofiq keladi.

Remarkaning ikkinchi qismini dona-dona qilib ifodali o‘qish tabiat manzarasini o‘quvchilar ko‘z o‘ngida gavdalantirish, ularni shu muhitga tushib qolgandek his qilishga yordam beradi.

Dramatik asarni ifodali o‘qishga kirishishdan oldin, uni ovoz chiqarmay ichda o‘qish, monolog, dialoglar, qahramonlar tabiati, ruhiy holatlari, portreti, voqea ro‘y berayotgan joylarni belgilab olish muhim ahamiyatga egadir.

Aytaylik, monologlar ifodali o‘qilganda, uning kim tomonidan, qay vaqtda, qanday holatda aytilganligi tasavvur qilinishi lozim.

Epik asarlardagi dialoglar bilan dramatik asarlardagi dialoglar o'rtasida muhim farq shundan iboratki, dramatik asarlarda dialoglar turli to'qnashuvlar asosiga quriladi. Shuning uchun ham dramatik asarlarni ifodali o'qishda undagi ma'lum harakat, turli-tuman munosabatlar, tortishuv yoki suhbat davomida qilinadigan pauzalarga katta ahamiyat qaratish zarur.

Dramatik asarlarning janr xususiyatlari ifodali o'qish usullarining turlicha tatbiq qilinishini talab qiladi. Masalan, komediyani o'rganishga qadar uni uyda o'qimaslik maqsadga muvofiqqina emas, balki, ehtimol, zararli hamdir: keyin kitobxonlarda tug'ilgan fikr asar zerikarli va tushunarsiz degan fikrlarni o'zgartirish uchun ko'p kuch-g'ayrat kerak bo'ladi¹⁵.

Dramatik asarni rollarga bo'lib ovoz chiqarib o'qish dramatik xarakterlar hamda dramatik harakatning murakabligi, hayotiy haqqoniyligini ko'rsatmali tarzda namoyish etuvchi tahlilning birinchi va zaruriy bosqichi sanaladiki, busiz o'quvchilarni muallifning asosiy g'oyasini tushunishga, ziddiyatni anglashga, maxsus kitobxonlik malakalarini egallashga olib kelish mumkin emas¹⁶.

Ma'lumki, o'quvchilarning ifodali o'qish malakalarini takomillashtirishda ifodali qish to'garaklarining o'rni alohidadir. Badiiy asarlarni o'quvchilarga yoddan aytishga o'rgatish nutq o'stirishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, ifodali o'qish to'garaklari rejalarida ko'rik-tanlovlar o'tkazilishi ham ko'zlansa, ular belgilangan vaqtda o'tkazildib borilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Tanlov haqidagi e'lon oldindan barcha o'quvchilarga yetkazilib, ishtirokchilar ro'yxati tuzib boriladi. Maxsus hakamlar hay'ati tomonidan belgilangan kunda ko'rik-tanlov o'tkaziladi, ishtirokchilarning ifodali o'qish mahorati baholanadi va taqdirlanadi. Shu boisdan ko'rik-tanlovlarning muntazam o'tkazilib turilishi o'quvchilarning

¹⁵ Niyozmetova R.X. O'zbek tili mashg'ulotlarida badiiy matnni o'qish // Til va adabiyot ta'limida yangi pedagogik texnologiyalar (Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari). 1-qism. – Toshkent, 2006. 15-18-betlar.

¹⁶ Niyozmetova R.X. O'zbek tili mashg'ulotlarida badiiy matnni o'qish // Til va adabiyot ta'limida yangi pedagogik texnologiyalar (Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari). 1-qism. – Toshkent, 2006. 15-18-betlar.

nutqiy malakalari izchil oshib borishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. G'oliblarni rag'batlantirish, ular nomini turli yig'in va tantanalarda ta'kidlab borish esa keyingi tanlovlarda ishtirokchilar soni ko'payishiga sabab bo'ladi. Bunday yig'inlarni puxta tayyorlash, ta'sirchan va ko'rgazmali bo'lishiga erishish, mehmonlarni taklif etish, tanlovlarning radio va televidenie orqali reklama qilinishiga erishish esa ularning ommalashuvini ta'minlaydi. Bunday tanlovlar mo'ljallangan paytda o'quvchilarning taklif va mulohazalarini ham e'tiborga olish kelgusi ijobiy rejalari bilan tanishish muvaffaqiyat garovi sanaladi.

X U L O S A

Har qanday ta'limning asosiy va yetakchi shakli darsdir, shuning uchun ham pedagogika fani uning samaradorligini oshirishning yo'llarini tinimsiz izlaydi, xilma-xil metodlar, usullar, vositalar ishlab chiqadi¹⁷.

Kitobdan uzoqlashib ketayotgan o'quvchilarni tom ma'nodagi kitobxonga aylantirish darslarini an'anaviydan farq qiluvchi yangi usullar asosida tashkil qilish, ta'limga yangi pedagogik texnologiyalar, zamonaviy texnik vositalarni muntazam joriy qilishni talab qiladi. Ifodali o'qish badiiy adabiyotning o'quvchi ma'naviy olamini boyitishdagi vazifasini amalga oshiruvchi muhim omillardan biri hisoblanar ekan, bu ham yangi-yangi usullar, vositalar tufayli yanada takomillashadi. Biroq alohida ahamiyat qaratilishi lozim bo'lgan jihat shundan iboratki, ifodali o'qishga o'rgatishda adabiy matndagi tinish belgilariga rioya qilish, har bir so'zni burro va dona-dona qilib talaffuz qilish, shu asnoda so'z ifodalagan ma'nolarni idrokka singdirib borish va tushunilishiga erishish, shular asosida bilim xazinasini bilan qurollanishini ta'minlashga qaratilgan ta'limiy maqsadning yuzaga chiqishi faqat maktab, xususan, adabiy ta'lim bilangina bog'liq emas. "Alohida ta'kidlash kerakki, – deb yozadi N.Mahmudov, – adabiy talaffuz me'yori tarbiyasi qancha erta boshlansa, shuncha yaxshi, chunki shevaga xos talaffuz ko'nikmasi juda mustahkam bo'ladi. ...taassufki, oilada bolaning tili qotguncha uni adabiy talaffuz tomon tortishga urinib ham ko'rilmaydi. Keyinchalik uni adabiy talaffuzga o'rgatish uchun ko'p kuch sarflanadi, ammo natija hamisha ham ko'ngildagidek bo'lavermaydi. Hatto til va adabiyot o'qituvchisi bo'lib yetishgan, aytaylik, xorazmlikning "o" tovushini ("a" yoki unga yaqin tarzda talaffuz qiladi), buxorolikning "O'" tovushini (asosan, til oldi "o'" tarzida talaffuz qiladi) sof adabiycha talaffuz qilishi

¹⁷ Mahmudov N. O'qituvchi nutq madaniyati. –T.:Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. – 32 b.

mushkulotga aylanadi. Ana shu tufayli “Bolaning tili rosa chiqib olaversin, uning nutqiy madaniyati haqida qayg‘urish qochmas, maktab hammasini o‘rgatadi” qabilida mulohaza qilish aqlning ishi emas”¹⁸. Darhaqiqat, o‘quvchilarni ifodali o‘qishga o‘rgatishni oilada qancha erta boshlasak, shuncha samarador bo‘ladi. Maktab esa o‘quvchilarda ko‘nikmalarni mukammallashtirishga, avtomatlashtirishga, malakaga aylantirishda o‘z vazifasini to‘liq ado etishi joiz. O‘quvchilarda taqlid qilish ustunligini nazarda tutsak, o‘qituvchi shaxsi, uning mahorati, nutq madaniyati masalasi naqadar ulug‘vorligi his qilish qiyin emas. “O‘qituvchining mahorati faqat o‘qitishning xilma-xil metodlarini o‘rinli va to‘g‘ri qo‘llay olishidangina iborat emas, balki o‘quvchi bilan muloqotidagi asosiy quroli – tildan ustalik bilan foydalana bilishi bilan ham belgilanadi. Ta’sirchan nutqi bilan o‘quvchi diqqatini butun dars davomida tutib tura olmasa, o‘qituvchining pedagogik mahorati haqida gap bo‘lishi mumkin emas. Darsning mazmuni va samaradorligi o‘qituvchi nutqining ta’sirchanligi, umuman, madaniy bo‘lishi bilan bevosita aloqadordir. Agar o‘quvchi o‘qituvchi nutqida noizchilik, tussizlik, qashshoqlik, mantiqsizlik, noaniqlik, uslubiy g‘alizlik, grammatik yanglishlik kabi nuqsonlardan loaqal birortasini sezsa, uning diqqati bo‘linadi, bayon qilinayotgan materialga bo‘lgan qiziqishi susayadi. ...Nutq texnikasi bilan bog‘liq kamchiliklar (ayrim tovushlarni talaffuz qila olmaslik yoki yanglish talaffuz qilish, ovozning ortiqcha balandligi yoki pastligi, ovoz tembridagi sifatsizlik, “shang‘illagan” yoki “hirqiragan” bo‘lishi, jumlada so‘zlararo pauza bera olmaslik, nutq jarayonida to‘g‘ri nafas ola bilmaslik va sh.k.) ham dars samaradorligiga oldingi ko‘rsatilgan nuqsonlardan kam salbiy ta’sir qilmaydi. O‘qituvchi nutq madaniyatini nafaqat o‘zi puxta egallagan bo‘lmog‘i, balki o‘quvchilarini ham unga odatlantirmog‘i kerak.

¹⁸ Mahmudov N. O‘qituvchi nutq madaniyati. –T.:Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. – 46 b.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov. I.A. “Barkamol avlod orzusi”. “Fan” Toshkent. 1999.
2. Karimov I. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsing // Tafakkur. – Toshkent, 1998. – №2.
3. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
4. Karimov I. Adabiyotga e’tibor – ma’naviyatga, kedajakka e’tibor. – Toshkent: O‘zbekiston, 2009
5. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik / Ahmedov S., Qosimov B., Qo‘chqorov R., Rizaev Sh. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi – Toshkent, Sharq, 2007.
6. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik / Ahmedov S., Qo‘chqorov R., Rizaev Sh. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi – Toshkent, Ma’naviyat, 2005.
7. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik / Yo‘ldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi – Toshkent, Sharq, 2005.
8. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik-majmua / Olim S., Ahmedov S., Qo‘chqorov R. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi – Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.
9. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik-majmua / Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. – Toshkent, Yangiyo‘l poligraf servisi, 2006.
10. Zunnunov A. Maktabda G‘.G‘ulom hayoti va ijodini o‘rganish. – T.: O‘qituvchi, 1977.
11. Inomxo‘jaev S. Badiiy o‘qish asoslari, – Toshkent, O‘qituvchi, 1973.

12. Mahmudov N. O'qituvchi nutq madaniyati. – T.:Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
13. Niyozmetova R.X. O'zbek tili mashg'ulotlarida badiiy matnni o'qish. // til va adabiyot ta'limida yangi pedagogik texnologiyalar (Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari). 1-qism. – Toshkent, 2006.
14. Nurmatova M. Ifodali o'qish to'garagi // Til va adabiyot ta'limi, 1992. 4-son.
15. Oripov K., Obidova M. Ifodali o'qish. – Toshkent: O'qituvchi, 1994.
16. Rustamov A. Adiblar odobidan adablar. – T.: ma'naviyat, 2003. – 112.
17. To'xliiev B., Shamsieva M., Ziyadova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2006.
18. Hojiahmedov A. Maktabda aruz vaznini o'rganish. – Toshkent, O'qituvchi, 1995.
19. Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash. – Toshkent: Fan, 2006.
20. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent: 2004.
21. Boyboboyev T. O'quvchilarda badiiy ijod ko'nikmalarini shakllantirishning ba'zi usullari. Til va adabiyot ta'limi. 1994, №2-3.
22. Mirqosimova M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari. T., 1995.
23. [www. pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
24. www. Ziyonet.uz
25. www. Ziyouz.com